



***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI***

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQA KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika-psixologiya

Fakulteti dekani _____ dots. B.Jo’rayev

“ _____ ” _____ 2013 yil

RAVSHANOVA GO’ZAL ZOIROVNA ning

«MUSIQA TA’LIMIDA SOLFEDJIO FANINING PEDAGOGIK ASOSLARI»

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o‘qt.M.Qurbonova

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Musiqa kafedrasi mudiri

katta o‘qt. _____ R. Primov

“ _____ ” _____ 2013 yil

Qarshi – 2013 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
--------------------	----------

I Bob. O'quvchilarning musiqa madaniyatini shakllantirishda nota o'qish malakalaridan foydalanish

1.1 Maktab o'quvchisi ovozining shakllanishi va tarbiyalash.....	7
1.2 O'quvchilarni varaqdan o'qishga o'rgatishning dastlabki tashkiliy jarayoni	19

II Bob. Musiqaviy madaniyatining shakllanishda notaga qarab kuylashning uslubiy vositalari

2.1 Notaga qarab kuylash malakalarini shakllantirishda vocal mashqlarning o'rni	28
2.2 O'quvchilarning musiqaviy madaniyatini shakllantirishda solfedjiodan foydalanish.....	35

XULOSA.....	47
--------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	49
--	-----------

ILOVALAR.....	51-60
----------------------	--------------

KIRISH

Muammoning dolzarbligi: Endilikda mustaqil Respublikamiz ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tubdan o'zgarishlar, yangilanishlar jadal suratlar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, o'z tarihimiz, sa'natimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimizni o'rganish va bunda kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni baharamand qilish asosiy vazifalardan birin bo'lib turibdi.

O'zbek xalqi o'zining tarixida buyuk olim va fuzololari Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yasavviy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi siymolar, fanning barcha sohalarida ulkan tadqiqotlar yaratib, butun jahonni larzaga soldilar.

“O'zbekistonning yorqin kelajagini ta'minlash uchun yosh avlodni otabobolarmizni yaratgan ma'naviy merosidan bahramant qilish siyosatimizning actual masalalaridan biridir.”

I.A.Karimov

Shaxsning har tomonlama komil inson bo'lib shakllanishida barcha fanlar qatori musiqa ham alohida o'rnini bor. Musiqa shaxs ma'naviy barkamoligining tarkibiy qismlaridan biri sifatida namayon bo'ladi. Musiqa sanatining yosh avlodga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi faqat uni faol hamda chuqur idrok etishni emas, balki o'quvchilarning shu san'at bo'yicha dars jarayonida o'rganilayotgan vakal, solfedjio faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etadi. Madomiki shunday ekan, umumta'lim maktablarida olib borilayotgan musiqa darslarining mohiyatini bugungi kun musiqa-pedagogikasi nuqtai nazaridan o'zgartirish, darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida o'tish maqsadga molikdir. Chunki bugungi kun musiqa ta'limining eng muhim maqsadlaridan biri nazariy va amaliy jihatdan bilimli, ijodkor, qobiliyatli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdir.

O'quvchilarda yuqorida keltirilgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda musiqa darslarida jamoa bo'lib kuylash va nota o'quvi faoliyatlariga ko'proq e'tiborni qaratish muhimdir.

Ashulani to'g'ri aytish va o'rganishni tezlashtirish uchun esa notaga qarab yani solfedjio qilib aytish malakalarini egallash katta ahamiyatga egadir. Bu faoliyat o'quvchilarda nota o'qishni shakllantirish bilan bir qatorda ular uchun eng muhim bo'lgan eshitish ya'ni musiqani ongli idrok etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu esa o'quvchilarda musiqa darsining vakal-xor, jamoa bo'lib qo'shiq aytish, musiqa nazaryasi, musiqa tinglash qobiliyati va boshqa qator faoliyatlarni osonlik bilan o'zlashtirishda juda katta yordam beradi. Mavzumizning mohiyati shundaki, hozirgi qadar dars jarayonida musiqa faoliyatlarining barcha turlaridan dars imkoniyati chegarasida foydalanilmoqda.

Musiqa darslarining saviyasi, sifati yanada unumli bo'lishligi uchun dars davomida solfedjio, ya'ni nota o'qish va notaga qarab kuylash faoliyatlariga ko'proq vaqt ajratish darsning sifatini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda nota o'qish va notaga qarab kuylash, ya'ni solfedjio dars davomidagi barcha faoliyatlarni nazariy va amaliy jihatdan birbiriga bog'laydi, o'quvchilarda aniq va yuqori kuylash saviyasini shakllantiradi. Musiqa darslari samaradorligini yanada oshirish ularni ilmiy va amaliy nuqtai nazaridan o'rganish bugungi kun musiqa pedagogikasini dolzarb vazifalaridan biridir. Shundan kelib chiqqan holda biz o'z bitiruv malakaviy tadqiqot ishimizning mavzusini tanladik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Musiqa darslarining samaradorligini oshirishda nota o'qish va notaga qarab kuylash malakalaridan yanada kengroq foydalanishning imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan yanada chuqurroq o'rganish va maktab o'quv tizimiga tadbiq etish.

Tadqiqotimizning obyekti: O'rta maktabda musiqa madaniyati darslarining o'qitilish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Musiqa madaniyati darslarining jamoa bo'lib kuylash faoliyati jarayonida o'quvchilarning notalarni erkin o'qishi va kuylashga bo'lgan badiiy ehtiyojini qondirish hamda qiziqishlarni shakllantirish.

Tadqiqotning maqsadi: obykti va predmetidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Musiqa madaniyati darslarini tashkil etgan faoliyatlarga umumiy izoh berib chiqish;
2. Musiqa madaniyati darsining asosiy faoliyatlaridan biri solfedjioni o`quv mahshulotlariga yanada kengroq tadbiq etish imkoniyatlariga tasnif berish;
3. Musiqa darslarida notalarni solfedjio qilib kuylashning shakl va usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot jarayonida shunday ilmiy faraz olg`a surildiki, maktabda musiqa darslarida qo`shiqlarni sifatli aytishda notaga qarab kuylash ya`ni solfedjioda keng foydalanishni ommalashtirishni biz quyidagi faoliyatlar orqali amalga oshirishimiz mumkin, agar:

1. O`quvchilarga notalarni erkin o`qish va kuylash orqali qo`shiq aytish san`atiga bo`lgan qiziqishlarini solfedjio faoliyati orqali amalga oshirilsa;
2. O`quvchilarga notalarni erkin o`qishlari va kuylashlari uchun darsdan tashqari o`quv mashg`ulotlari tashkil qilinsa va faoliyat ko`rsatilsa.
3. Tanlangan qo`shiqlarni notalarini o`quvchilar tomonida erkin o`qish va kuylashlarida yetarli bilim va malaka bo`lsa;
4. Solfedjio faoliyatining darsning boshqa faoliyatlariga bog`lab o`tilsa;

Tadqiqotning metodologik asosini mutaffakirlamizning musiqa san`atining o`qitilishini tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikrlari O`zbekiston davlatining “Ta`lim to`grida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” milliy musiqaviy qadriyatlarini shakllantirish to`g`risida, xalq ta`limi musiqa estetik tarbiya sohasida chiqarilgan farmonlari va hujjatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati: shu bilan aniqlandiki, maktabda musiqa madaniyati darslarning samaradorligini, sifatini, unumdorligini yanada oshirishda notaga qarab kuylash ya`ni solfedjio faoliyatidan kengroq foydalanish zarurligi isbot qilindi.

Solfedjio faoliytida kengroq foydalanishning imkoniyotlari shakl tuzulishi hamda uning mazmuni yoritib berildi.

O`quvchilarning unga bo`lgan tayyorgarliklarining darajasi va ko`rsatkichlari aniqlandi: O`quvchilarga musiqa darslarida notaga qarab kuylash orqali qo`shiqlarni sifatli o`rgatish hamda keng ommalashtirish samaradorligini shart sharoitlar nazariy va tajribada asoslandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shu bilan belgilandiki, undagi nazariy hulosalar o`quvchilarning notalarni o`qishni tez o`zlashtirishlarida solfedjiodan keng foydalanish kerakligini ko`rsatdi.

Muammoga tegishli uslubiy ko`rsatlamalarni “Musiqaviy madaniyat” darslari va mashg`ulotlarini o`qitishda va olib borishda o`quvchilarni darsdan bo`sh paytlari faoliyatlari jarayonida samarali kuylash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning mundarijasi kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. O'QUVCHILARNING MUSIQA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA NOTA O'QISH MALAKALARIDAN FOYDALANISH

1.1. Maktab o'quvchisi ovozining shakllanishi va tarbiyalash

Bugungu kunda musiqa madaniyatining rivojlantirishda bolaning ovozini tarbiyalash va saqlash masalasi juda katta ahamiyatga egadir. Biroq bolalarni qo'shiqchi qilib tarbiyalash masalalari musiqa ta'limi fanining anchagina murakkab va eng kam o'rganilgan qismidir.

Hozirda bolalar ovozini tarbiyalash va saqlash muommosini o'rganish masalalari bilan mamlakatimizning yirik musiqashunos mutahassislari, professorlari shug'ullanmoqdalar. Bu olimlar tovush apparatining tuzilishi va rivojlanish xususiyatlarini tekshirib chiqib, bolalar ovozini tarbiyalash va saqlashning ilmiy asoslangan bir qancha metodlarini taklif etdilar.

Yuqori nafas yo'li sog'lom bo'lgan ko'pgina bolalarni tekshirib chiqish natijasida bolalarning nisbatan ko'p chiligining tovush apparati sog'lom bo'lmaganligi xatto ovoz boylamlari (pardalari) nosog' ekanligini aniqlashdi. Mutahassislar olib borgan juda ko'p kuzatishlar natijasida shu narsa aniqlanganki bu kasallikka musiqa darslarida va xor to'garaklarida qo'shiq aytishga o'rgatishning noto'g'ri yo'lga qo'yilganligi asosiy sabab bo'lgan. Bu narsa o'z navbatida bolalar xor jamoasiga rahbarlik qila bilmaslikdan, maktabdagi ashula o'qituvchisining malakasi kamligidan kelib chiqadi. Afsuski, umumiy ma'lumot maktablarida ashula o'qituvchisi masalasi hozirga qadar hal qilinmagan, natija Respublikamizning ko'pchilik maktablarida ashuladan unchalik xabari bo'lmagan, bolalar ovozining xususiyatlari, ularning rivojlanish davrlari, bolalar ovozi gigiyenasi asoslari va uni saqlash masalalari haqida deyarli hech qanday tassavurga ega bo'lmagan kishilar ashula darsini olib bormoqdalar.

Har bir ashula o`qituvchisi va xor jamoasining rahbari tovush apparatining tuzilishini, bolalarda uning rivojlanish xususiyatlarini bilish hamda ashula aytish jarayonining fiziologik qonunlarini tushunishi kerak.

Mana shularga asoslanibgina ashula aytadgan ovozni tarbiyash uchun u yoki bu usulni qo`llash mumkin.

Ovoz apparatining tuzilishi

Qo`shiq aytish apparatining tovush hosil qiladigan asosiy qismi hiqildoq, tomoqning yuqoridagi nafas yo`lidir. Hiqildoq tog`aylardan iborat bo`lib ular muskullar yordamida harakatga keladi. Uzuksimon, cho`michsimon va qalqonsimon tog`aylar tovush hosil qilishda asosiy ro`l o`ynaydi. Hiqildoqning ichki devori ovoz yorig`ini hosil qiladi, uning chetlari esa ovoz boylamlaridan iborat bo`lib, ular gorizantal holatda yotadi va elastic to`qimalardan tuzilgan bo`ladi. Ovoz boylamlari oldingi tomonda qalqonsimon tog`ayga yopishib, o`zoro birlashib turadi, orqa tomonda esa bir-biridan uzoqlashib, o`rtasida o`tkir burchak hosil bo`ladi, shuning uchun ovoz yorig`i uchburchak shaklidir. Boylamning uchlari tog`ayga yopishgan: qalqonsimon tog`aylar boylamlariga birlashtiradi va ajratib turadi.

Asosiy harakatlanitiruvchi kuch vazifasini tog`aylarni bir-biriga yaqinlashtiradigan yoki uzoqlashtiradigan qalqon-uzuksimon bir juft muskul bajaradi. Boylamlar u yoki bu darajada tarang tortilishi va qisqarishi, butunicha yoki chetlari gina tebranishi mumkin. Bu narsa tegishli tog`aylarning yaqinlashishi yoki uzoqlashish darajasiga bog`liqdir. Boylamlar tinch turganda deyarli harakatsiz holatda bo`ladi, ular orasidagi tovush yorug`i deyarli katta bo`lmaydi, havo esa nafas olinayotganda ovozsiz o`tib turadi. Tovush hosil qilish uchun muskullarni ma`lum darajada zo`riqtirish talab qilinadi, bu zo`riqish esa nafas olish va nafas chiqarishda havo ko`proq olingandagina, ya`ni ashula aytish nafas olinayotgan va chiqarilayotgan vaqtdagina hosil bo`ladi. Tovush nasaf chiqarish paytida havo oqimi hiqildoq orqali o`tib, butun ovoz apparatini yoki ashula aytish apparatini harakatga keltirishdan hosil bo`ladi. Ashula aytilayotganda o`pkadan chiqqan

havo kuch bilan boylamlarni chiqib uni harakatga keltiradi. Boyamlar ko'tariladi, cho'ziladi, ovoz yorig'i bir qadar kengayadi shundan so'ng boylamlar yana o'z holiga qaytadi va ovoz yorig'i deyarli yopiladi. Yangidan havo oqimining kirishi bilan bu jarayon takrorlana boradi. Boyamlarning shu hilda harakat qilishi natijasida tovush hosil bo'ladi. Shunday qilib ovoz boylamlari muskullar va tog'aylar hiqildoqning ichki qismlari bo'lib ashula aytadigan ovoz mana shu yerda hosil bo'ladi.

Biroq ovoz boylamlari hosil qilgan tovush zaif va deyarli tembrsiz bo'ladi. Tovush o'ziga hos hossalarga, ya'ni tembr va kuchga ega bo'lishi uchun qo'shimcha sharoitlarni talab qiladi. Bunda rezonatorlar, halqum, burun halqum va o'giz katta ahamiyatga ega. Huddi mana shular tovushga ma'lum tus va kuch beradi. Bundan tashqari tovush kuchi boylamlarni harakatga keltiradigan havo oqimining kuchiga va ko'lamining kengligiga bog'liq. Amplituda qancha keng bo'lsa, ovoz shuncha kuchli chiqadi va aksincha amplituda qancha zaif bo'lsa, tovush ham shuncha nimjon bo'lib chiqadi.

Tembor (tovush tusi) hosil qilishda hiqildoqning elastic qismi ham bir qadar ahamiyatga ega, lekin bunda boylam ustidagi kamgak bilan hiqildoq ustidagi kamgak sohta ovoz boylamlaridan to tilning uchigacha, tishlar va labgacha bo'lgan a'zolari asosiy rolni o'ynaydi.

Tovushning ohirgi hossasi, uning balandligi ovoz boylamlarining tarang bo'lib tortilishi darajasiga, ularning tebranish tezligiga bog'liqdir. Boyamlar qancha ko'p tarang bo'lib tortilsa, ovoz shuncha baland, qancha bo'sh tortilsa ovoz shuncha past bo'lib chiqadi. Boyamlarning tarang qilib tortilishining chegarasi bor, agar bu chegaradan o'tib ketilsa, og'ir travmaga duxor bo'lishdan tashqari, ashula aytish u yoqda tursin, hatto gapirishga ham ovoz chiqmay qolishi mumkin. Demak, tovushning barcha asosiy hossalari – kuchi, tembri va balandligi ovoz boylamlarigagina bog'liq bo'lib qolmasdan balki butun tovush apparatiga ham bog'liqdir.

Ashula aytish jarayoni juda takkomillashgan, juda murakkab funksiyalar ketma-ketligidan iborat bo`lib, ularni faqat bir-biri bilan organik bog`langan bir butun holda qarab chiqish mumkin. Ashula aytish apparatining hamma ishi va butun ashula aytish jarayoni oily nerv faoliyatining umumiy qonuniga bo`y sungan va halqali refleksning yorqin misoli bo`lib hizmat qiladiki, bir juft yoki bir guruh muskullar harakatga kelsa, boshqa muskullar ham harakatga keladi. Chunonchi tovush chiqarmoqchi bo`lishingiz bilan ovoz muskullari boylamlari bilan birgalikda harakatga keladi, hamda avtomatik tarzda, hech qanday zo`riqishsiz, fiziologik zaruriy nafas chiqariladi, bu siz albatta tovush hosil bo`lmaydi. Shunday qilib, aytish funksiyasini bajarish uchun barcha tayanch muskullar nafas apparatini ishga solish va hiqildoqning ovoz hosil qiladigan qismlarini harakatga keltirish zarur. Tovush hosil qiluvchi tovush fiziologiyasining asosiy holatlari kattalarda qanday bo`lsa bolalarda ham shunday bo`ladi. Biroq shuni esdan chiqarmaslik kerraki, bolalarning tovush apparati juda nozik bo`lib, u o`ziga juda ehtiyotlik va ustalik bilan muomila talab etadi. Ko`p vaqt kattalarda uchraydigan tovush apparati kasalliklari va undagi defektlar, bolalik chog`ida unga vokal tarbiyasining noto`g`ri berilganligi natijasidir.

Bolalarning tovush apparatini tekshirish, uning turli davrlarda qanday rivojlanishi va tovush hosil qilishining turli ko`rinishlarini kuzatib borish bolalar bilan olib boriladigan vokal-xor ishlarining metodikasini to`g`ri ishlab chiqarishda muhim ro`l o`ynaydi. Tovush tanglaydan chiqqanida boylamlar oralig`ida yoriq qoladi, tovush ko`krakdan chiqqanida ular bir biriga mahkam yopishadi. Sado chiqarishning uchunchi aralash turi ham bor. U ovoz boylamlari chetlarining va ovoz muskullari ba`zi qismlarining tebarinishidan hosil bo`ladi. Bolalar ovozi uchun diapazonning deyarli butun davomida tovushning tanglaydan chiqishi xarakterlidir. Faqatgina kattaroq yoshda (12-13 yoshda) tovush aralash tarzda chiqadi, biroq tanglaydan chiqadigan tovushning yuqorigi qismida diapason saqlanadi. Tanglaydan chiqadigan sado o`zining taabiyiligi, yengiligi va yorqiniligi bilan, ya`ni bolalar ashulasining ajralmas qismi sifatida ajralib turadi. Bolalar ashula aytayotganda “ko`krakka zo`r berib” aytsalar, quloqqa juda suniy va

yoqimsiz eshitiladi. Jadallashtirilgan tovush bilan ashula aytayotgan bolalar stroboskop orqali kuzatilganda diapazonning butun davomida ovoz boylamlarining tebranishi ko`krakdan bo`layotgan zo`riqish tufayli yuz berayotganligini va shu bilan birga ashula aytayotganda bolalardagi umumiy zo`riqishni, gavdalari qotib qolganday yuz va bo`yinlari jiddiy holatda ekanligini ko`ramiz. Ashula zo`riqib, noto`g`ri diapazon va tessiturada (balandlikda) aytilsa barcha vokal muskullarining o`ziga xos bo`lmagan normada ishlashiga ovoz boylamlarining haddan tashqari amplituda tebranishiga sabab bo`ladi, natijada chinqiroq , kuchanib chiqarilgan tovush hosil bo`ladi. Bu hol,asosan tovush asossan tovush apparatini holadan ketkazadi, uni buzilishiga olib keladi va turli kassaliklarni keltirib chiqaradi. Turmushda kattalarda taqlid qilib ashula aytish, ko`p vaqt ashula o`qituvchisining turli ashulalarni har-xil uslubda ijro etishi bolalarning yoshligidanoq “ko`krakka zo`r berib” ashula aytishga odatlanishlariga sabab bo`lmoqda.

Uzoq vaqt davomida ashulani zo`riqib, shuningdek, baland tessiturada va diapazonning chetki tovushlarni suiste`mol qilish oqibatsiz qolmaydi, ko`pincha u ovozning buzilishiga olib keladi: ovoz termolatsinalgan hirrilaydigan, gijillaydigan bo`lib qoladi, to`ng`illash, bug`iqlik va shu kabi nuqsonlar paydo bo`ladi. Jadal ovoz bilan ashula aytadigan bolalarni tekshirish natijasida ovoz boylamlarida “tugunchalar” ning paydo bo`lishi, boylam chetlarining yog`onlashishi, boylamlarning bir-biriga yopishmaslik, hiqildoqning yallig`lanishi va shu kabi kassaliklar borligi aniqlandi. Bu hol bolalar ovoziga hos bo`lgan noziklik, yoqimliylik va go`zallikni yo`qotadi, ko`pincha esa butunlay ashula ayta olishni yo`q qiladi.

Bolalar bilan olib boriladigan vokal xor ishlarida tog`ri metodika ishlab chiqish uchun har-xil yoshli bolalardagi tovush apparatining rivojlanish hususiyatlarini bilish, ashula aytadigan ovozning shakllanishi bosqichlariga qarab ijrochilik imkoniyatlarni bilish muhim ahamiyatga egadir.

Bolaning butun organizmi kabi tovush apparati ham doim o`sb va o`zgarib boradi shuning uchun ham bolalar katta bo`lgan sari tovushning harakteri va kuchi o`zgaradi. Bu o`zgarish ayniqsa o`gil bolalarning tovush apparatida tez sezirarli darajada yuz beradi. Natijada bola ovozi erkaklar ovozig aylanadi.

Normal rivojlanadigan bolalar ovozig a xos bo`lgan bola ovozinig shakllanishidagi asosiy davrlar bilan tanishamiz:

1. Yetti-to`qqiz yoshli bolalarning ovozi o`zining yengiligi, tiniqligi va yorqinligi hamda ovozning tanglaydan chiqishi bilan ajralib turadi. O`g`il va qiz bolalarning ovozi bir biriga o`xshaganligi sababli ba`zi vaqtda ashulani kim ijro etayotganligini- og`il bolami, qiz bolami bilish qiyin. Ovozlarinig deyarli hammasi diskant ovozlaridir. Diapazoni do1, re1, dan do2-re2 gacha birinchi oktavadagi fa, sol, lya tovushlari eng yaxshi sado beradigan tovushlaridir.

2. O`n-o`n bir yoshli bolalarning ovoz ancha kuchli va quyuqroq eshitiladi. Quyu tovushlarda, ko`krakdan chiqarib aytish elementlari uchraydi. Bu yoshda ovoz shakllana boshlaydi, xiyla muayyan temberdagi ohang paydo bo`ladi. Shu tufayli o`g`il bolalar ovozi diskant va alt bo`linadi. Qiz bolalarning ovozi yengil va tiniq bo`lib ba`zan ularda tembr alomatlari ham uchraydi lekin o`g`il bolalardagidek ravshan bo`lmaydi. Ovozning bir ikkiga bo`linishi shartli bo`lib, asosan diapason kengligi va musiqa o`quvinig sifatiga qaraladi.

Diapazon: diskantlar (birinchi ovozlar) do1 dan fa 2, primarlar tovushlar sol1, lya 1, si 1, altlar (ikki ovozli) si dan re2 gacha, primar tovushlar fa, solgachadir.

Bolalarning yoshiga qarab ovozini harakterlashda shu narsani nazarda tutish kerakki, bolalar ovozi ko`p vaqt normadan chiqib ketadi. Odatda bu hol, bolalarda barvaqt kattalarga hos ko`krak tovushi paydo bo`lishida ko`rinadi. Bunday ovozlar o`zining kuchliyligi va to`liqligi bilan ajralib turadi, biroq bunday ovozlar g`ayri tabiiy va yoqimsiz eshitiladi. Ba`zan buning aksi ham bo`ladi ya`ni ovozning rivojlanishi kechikadida, uzoq vaqtgacha, butun diapazon davomida bolalik ovozi saqlanib qoladi.

Bolalar bilan olib borilagan vokal ishlarida bu hodisalarni hisobga olish kerak.

Mutatsiya: o`g`il bolalar ovozi saqlab qolishda o`tish davri katta ahamiyatga ega, bunda bolalik ovozi erkak ovozga aylanadi, ya`ni mutatsiya (o`zgarish) ro`y beradi.

O`gil bolalarda mutatsiyaning boshlanish davri odatda jinsiy balog`atga yetish davriga to`g`ri keladi. Bu narsa ko`proq 12-15 yosh orasida yuz beradi, lekin ba`zan mutatsiya ertaroq 11-12 yoshda ba`zan kechroq 16-18 yoshda sodir bo`ladi. Ba`zi vaqtlarda mutatsiya butunlay bo`lmay qoladi, u vaqt bunday erkaklarda hayotning ohirigacha “ingichka” ovoz saqlanib qoladi. Mutatsiyaning boshlanishi ko`pgina sabablarga chunonchi, iqlimga bog`liqdir. Mamlakatning shimoliy tomonida mutatsiya kech boshlanadi, janubiy tomonida esa erta boshlanadi. O`zbekistonda mutatsiya ko`pincha 12-13 yoshlarda boshlanadi. Mutatsiyaning turi va davom etishi turlichadir.

Mutatsiya davri ko`pincha 1 yilga yaqin davom etadi, ba`zan bir necha hafta, bir necha oy va hatto bir necha yil (5 yil)gacha davom etish hollari ham uchraydi. O`g`il bolalarda mutatsiya boshlangan paytni o`z vaqtida payqash va unga vokal rejimini to`g`ri belgilash uchun mutatsiyaning eng harakterli belgilarini bilish kerak. Mutatsiya boshlanishidan bir necha oy oldin mutatsiya boshlanganligining daslabki belgilari paydo bo`la boshlaydi: ovoz u qadar mustahkam bo`lmaydi, goho-goho intanatsiyasida sohtalik yuz beradi, ashula aytgisi kelmaydi, yoki agar aytsa ham past tissiturada aytishga harakat qiladi. Bu belgilar paydo bo`lib bir yo`qolib turadi. Bu vaqtda o`qituvchining juda ziyrak bo`lishi, butun diqqat etiborini shu belgilarning o`z vaqtida fahmlashga jalb etishi kerak.

Mutatsiyaning o`zi turlicha o`tadi. Ba`zida ovoz asta sekin bolalarning o`ziga ham uning atrofida qilarga ham bilinmay o`zgaradi: ba`zi paytlardagina ashula aytayotganda ovoz xirrilab, tez charchab qoladi, sohta intonatsiya paydo bo`ladi. Bu holda ovoz bo`linib chiqadi, erkak ovozining elementlari paydo bo`la

boshlaydi bu mutatsiyaning osoyishta formasi bo`lib, ashula aytadigan ovozni shakllantirish uchun juda qulaydir. Biroq ba`zan mutatsiya boshqa formalarda ham yuz beradi. O`g`il bolaning ovozi ashula aytayotganda vaqtida hatto gapirib turganda ovozi o`ziga bo`y sunmay qo`yadi, birdaniga o`tkaziladi. Ovozda ba`zan past bas tovushi ba`zan aksincha juda baland tovush paydo bo`ladi. Ovozning bu hil “sakrashi” dastlab tez-tez, keyin esa bora bora siyraklashib, past tovushlar ustunlik qiladi va bolalik ovozi erkak ovozga aylanadi. Mutatsiyaning barcha turlari va formalari bilan tanishib chiqish qiyin. Yuqorida biz tanishgan mutatsiya formalari eng ko`p tarqalgandir.

O`qituvchi mutatsiyaning dastlabki belgilari namayon bo`la boshlagan o`quvchini diqqat bilan kuzatib boorish bu davrda ovozni juda ehtiyot qilish lozimligini tushuntirish kerak: xor bo`lib ashula aytayotganda yuqori ovozga aytishga yo`l qo`ymaslik, ovozni charchatib qo`yadigan ashula aytishga ijozat bermaslik, qisqa qilib aytganda, ashula aytish rejimini yaratib berish kerak. Mutatsiya boshlanishi bilan bola shu davrda ashula ayitshni to`htatishning zarurligi va maqasada muvofiq ekanligini tushuntirib, ashula aytishni butunlay taqiqlash lozim.

Qizlar ovozini juda ko`p tekshirish va kuzatishlar natijasida o`g`il bolalardagidek qizlarda mutatsiya bo`lmasligi aniqlandi.

Qizlarning tovush apparati sekin ashta kattalashadi, lekin o`g`il bolalarnikidek emas. Ovoz osyishtalik bilan rivojlanadi, sekin asta xotinlar ovoziga xos hususiyatlarni: to`liqlik, kuchlilik va temberni hosil qiladi.

Bolalar ovozini saqlash metotlari. Bolalarning ovoz apparati tuzilishini va xushovozlikning shakllanish hususiyatlarini chuqur o`rganish bolalar ovozini saqlash va tarbiyalash uchun ma`lum metodika ishlab chiqishni zarur qilib qo`ydi. Bu ikki tushunchani (bolalar ovozini shakllanishi va uni saqlash tushunchasini) bir biridan ajratib bo`lmaydi. Chunki bolalarni ashula aytishga to`g`ri o`rgatish ovoz saqlashning eng muhim usulidir, demak umumiy ta`lim maktablarida musiqa

tarbiyasini amalga oshiruvchi ashula o`qituvchilarning roli juda kattadir. Bolalarni qo`shiqchi qilib tarbiyalash o`qituvchilarning malakasiga, bolalar ovozidagi hususiyatlarni bila olishiga, qo`shiqqa o`rgatish metodikasini qanchalik egallaganiga bo`g`liqdir.

Har bir o`qituvchi bolalarni ashula aytishga o`rgatar ekan u ashulani bolalarga hos go`zal jaranglagan, tiniq tovush bilan qiynalmasdan, erkin hech qanday zo`riqishsiz aytadigan qilib tarbiyalashga intilish kerak. Bolalarning vokal – xor malakalarini egallashi, ashulachilik qobiliyatini doimiy o`stirib borishi, ijrochilik imkoniyatlarini rivojlantirish ustida muntazam ish olib borishi kerak. Ashula aytish malakalarini egallash ustida ish borilganda yelkani bukchaytirib yoki boshni orqaga tashlab o`tirishning nafas olishga va tovush hosil qilishga yomon ta`sir qilishni ko`rsatadigan har-xil ko`rgazmali qurollardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Sinfga bolalarning ashula aytayotganda to`g`ri va noto`g`ri holatda turganligini ko`rsatadigan plakatlarni osib qo`yish mumkin.

Tovush hosil qilish ustida olib boriladigan ishni to`g`ri tashkil qilish bolalar ovozini saqlashda juda muhim ahamiyatga ega bu yerda o`qituvchining o`zi shahsan na`muna ko`rsatishi ayniqsa muhimdir. Bolalardan talab qilinadigan tovushni hosil qilishga erishish uchun o`qituvchining o`zi shu tovushni tallafuz qilib ko`rsatishi kerak. Buning uchun o`qituvchi ma`lum darajada vokal madaniyatiga ega bo`lishi, o`z ovozini mohirlik bilan boshqara bilishi kerak. Bolalarni ovoziga qarab diskant va altlarga ajratish davri masulyatlidir. Bu ishda xatoga yo`l qo`yilsa bolalarning ovozini ishdan chiqarib qo`yish mumkin. Yo`l qo`yilgan xatolarni o`z vaqtida tuzatish uchun bolalarning ovoziga diqqat bilan quloq solib, o`rganib boorish zarur.

Qoloq va istedodli bolalarni aniqlash uchun ashula darsida va xor to`garaklarida har bir bolani yakkama yakka kuzatib borish zarur.

Bolalarni ovoziga qarab diskand va altlarga ajratish davri ma`suliyatlidir. Bu yoshda xatoga yo`l qo`yilsa bolalarning ovozini

ishdan chiqarib qo'yish mumkin. Yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzutish uchun bolalarning ovozigacha diqqat bilan quloq solib, o'rganib borish zarur.

Qoloq va iste'dodli bolalarni aniqlash uchun ashula darsida va xor to'garaklarida har bir bolani yakkama-yakka kutatib borish zarur. Ayniqsa yaxshi vokal san'atini egallagan bolalarga alohida va muntazam ravishda e'tibor berib borish kerak, chunki keyinchalik bunday bolalardan haqiqiy ashulachilar yetishib chiqishi mumkin.

Bolalar ovozi saqlab qolish uchun repertuarni to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Shu narsani esda tutish kerakki, haddan tashqari baland yoki haddan tashqari past tessiturali ashulalar bolalar ovozigacha zazarlidir.

Maktabda xor jamoasini tashkil qilishda bolalarning yoshiga qarab, taxminan bir xil yoshdagi bolalarni to'plash kerakligini ham yodda saqlash zarur. Ammo quyi va yuqori sinf o'quvchilarini bitta xorga birlashtirish butunlay mumkin emas. Chunki shunday sostavdagi bolalarning hammasi uchun mos keladigan repertuar tanlash qiyin, bundan tashqari xorda ashula aytishi natijasida ovoz apparatini toliqishi ham zazarlidir. Shuning uchun ashul aytavermasdan, musiqa mashg'ulotlarining boshqa turlari bilan navbatlashtirib turish kerak.

Bolalar ovozi profilaktika tadbirlarining ham katta ahamiyati bor. Bunga, birinchi navbatda, tushuntirish ishlari kiradi. Bu ishni ashula o'qituvchilari keng bolalar ommasi o'rtasida va bolalarga bevosita aloqador bo'lgan kattalar o'rtasida: maktab rahbarlari, o'qituvchilari, va hokazolar o'rtasida olib borishlari kerak.

Har bir ashula o'qituvchisi va badiiy jamoaning rahbari o'quv yili boshida bolalarga ovozni ehtiyot qilib saqlash, o'yin vaqtida,

ayniqsa havo sovuq bo'lganda haddan tashqari baqirish, chaqirishning zarurligini tushuntirish kerak.

Bolalarni shamollashdan saqlash kerak. Shamollash badan qizib ketganda yoki uzoq ashuladan keyin butun badan emas, balki faqatgina tovush apparati qizib ketganda sovuq suv ichish, morojenoye yeyishdan paydo bo'lish mumkin.

Ochiq havoda ommaviy o'yin-tomosholar, sayillar o'tkazilayotgan vaqtda ekskursiya va namoyish vaqtida qattiq ovoz bilan ashula aytishning zararli ekanligini tushuntirish kerak. Ochiq havoda ashula aytish mumkin, lekin sovuq havoda va jadal ovoz bilan aytish mumkin emas.

Ota-onalar o'rtasida ham tushuntirish ishlari olib borish katta ahamiyatga ega. Ko'pincha ota-onalar bilmasdan kattalar repertuariga hos ashulalar aytirib, o'z bolalarining ovozini buzib qo'yadilar. Ota-onalar ashula aytishga qobilyatli bo'lgan bolalari bilan fahrlanib, o'z tanishlari oldida ularga ashula aytiradilar. Natijada esa bolalar kattalarga taqlid qilaman deb ashula uslubini buzadi va ovozlarini ishdan chiqaradilar.

Profilaktika tadbirlarining yana muhimlaridan biri xor to'garaklari qatnashchilarining va ashulachilik qobiliyati bo'lgan bolalarning ovoz apparati qobiliyatining ovoz apparati holatini mutaxassis-vrach ko'rigidan o'tkazishdir.

O'qituvchi ashula aytayotganida bolalarning ovozida biror nosozlikni sezib qolsa, shunday bolalarning tovush apparatini, shu bilan birga, ashula aytayotgan vaqtda hiqildog'ining og'riyotganidan shikoyat qilgan bolalarni ham vrachga ko'rsatishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, vatanimizning vokal va jamoa hamda mumtoz qo'shiqlarimizni rivojlantirishda bolalar ovozini saqlashda tarbiyalash masalasi katta davlat ahamiyatiga egadir.

1.2. O'quvchilarni varaqdan o'qishga o'rgatishning dastlabki tashkiliy jarayoni

O'quvchilarni kuylashga o'rgatishda dastlab kichik-kichik musiqaviy jumalardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Bunday malakalarni egallab, bolalar maktabda o'rganilgan qo'shiqlarni ancha ifodali va badiiy qilib ijro eta oladilar va bu esa ularning yaxshi didli bo'lib, to'g'ri tarbiyalanishiga va musiqani tushuna bilishlariga xizmat qiladi.

Bu xildagi malakalarni egallab olish ishi ashula aytishni o'rganishga kirishilgan birinchi kunlardan boshlab olib borilishi kerak. Shuning uchun bolalarning shu sohadagi kelgusi taraqqiyotiga sababchi bo'ladigan dastlabki davrdagi ishi ayniqsa mas'uliyatlidir. Egallangan malakalar keyingi yillarda mustahkamlanadi va chuqurlashtirib boriladi.

Har bir bolani ashulani to'g'ri aytishga o'rgatish mumkin, biroq bu xiyla murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, ashula o'qituvchisidan katta sabot matonatni talab etadi. O'qituvchi ashulani to'g'ri aytish bolalarda refleks bo'lib qolishga asta-sekin va metodik jihatdan erishmog'i kerak. Agar kuylash malakasi hosil qilish ishini, asosan o'rganiladigan qo'shishning badiiy obrazi ustida olib boriladigan ishga bo'ysindirib olib borilsa, bu jarayon ancha muvaffaqiyatli bo'ladi. Ashulaning badiiy obrazi ustidagi ish bilan uning vokal tomon ustidagi ish o'rtasida bir-biriga ikki yoqlama bog'liqlik bo'lishi kerak: ya'ni o'qituvchi ashulaning badiiy ijro etilishiga harakat qilishi bilan uning sof texnik tomoni ustida ham puhta ish olib boradi: o'qituvchi to'g'ri ashulachilik malakasi bilan tarbiyalab badiiy obrazni mumkin qadar to'liqroq aniqlash uchun sharoit yaratadi.

Sinfda o'rganiladigan har bir qo'shiq ifodali, yuksak badiiy, bolalar tasavvuriga chuqur ta'sir qiladigan bo'lishi kerak. Agar qo'shiq bolalarni qiziqtirsa, ularning ongiga omotsional ta'sir etsa, u vaqtda qo'shiq aytish usullarining sof texnikasi tomoni ustida olib boriladigan ish ularga zerikarli tuyulmaydi.

Ko'pincha ashula o'qituvchilari kuylash malakalarini vaqtini bekorga oladigan narsa deb, unga nazar pisand qilmaydilar, qo'shiq ustida olib boriladigan ishning o'zi maktab o'quvchilariga yetarli deb hisoblaydilar. Bunday qarashlar bilan kelishib bo'lmaydi, chunki bu metod qo'llanganda kuylash malakalari bolalar tomonidan ancha kech va sekin o'zlashtiriladi.

Ashula o'qituvchisi maxsus mashqlarni tanlashda qancha ijodkor bo'lsa, u o'z maqsadiga shuncha tezroq erishadi.

Kuylash mashqlari har bir ashula darsidan ma'lum o'rin olishi kerak. Bu mashqlar juda xilma-xil bo'lishi mumkin, lekin hamma vaqt bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi kerak.

Kuylash malakalari ustida ish olib boriladigan ish metodlari bolalarning yoshiga qarab o'zgarib boradi. Boshlang'ich maktabda o'qituvchining mashqlarini o'z ovozi bilan bilan ko'rsatishi asosiy metod hisoblanadi. Beshinchi, oltinchi sinflardan boshlab esa, bolalar bu yoshda atrof-muhitga hiyla ongli munosabatda bo'lganliklari sababli, bu metod ancha o'zgaradi. Ovoz bilan ko'rsatishi metodi bilan birga bolalarning u yoki bu vokal-xor malakasini ongli idrok ettirishi metodidan ham foydalanishi juda muhimdir.

Bolalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'shiq aytishni o'rganishi jarayonida qay hildagi kuylash malakalarini hosil qilishlari kerak? Ashula aytishi uchun qomatni rostlash, ashulachilikka xos

nafas olish, tovush hosil qilish, diksiya, soz, ansambl bularning hammasi kuylash malakalaridir.

Ashula aytishdagi holat. Birinchi ashula darsidan boshlaboq bolalarga kuylash malakalarining asoslari beriladi. Bu yerda eng asosiy vazifa ashula aytish uchun qomatni rostlashni vujudga keltirishdir.

Qo'shiq aytish uchun qomatni to'g'ri rostlash deganda nimani tushunamiz? Bunda biz, qo'shiq aytayotganda gavda, bosh, oyoq va qo'lni qanday holatda turishi lozimligini tushunamiz. Qo'shiq aytish uchun qomatni to'g'ri rostlash, qo'shiq aytishda nafasni bir tekis olish, ashulani tabiiy erkin ravishda aytishni ta'minlaydi. Demak, o'qituvchi bunday malakani hosil qilish uchun juda ko'p e'tibor berishi kerak.

Qo'shiq aytish uchun qomatni to'g'ri rostlash nimalardan iborat? Ma'lumki, ashulani tikka turgan holatda ijro etishi eng qulay va ma'qul usul hisoblanadi. Bunda gavdani erkin, yelkani kerib, uni sal orqaga tashlash, ko'krak qafasini to'g'ri tutish lozim. Bolalar tikka turib ashula aytayotganlarida gavdani bukmasdan va yelkalarni bukchaytirmasdan, qo'llarni erkin, bemaol pastga tushirgan, oyoqlarni salelka kengligidan kichikroq ochgan holatda, unga tayanib turishlariga e'tibor berishi kerak. Boshni bir oz o'ziga qulay bo'lgan tabiiy holatda ko'tarib turishi lozim. Bu narsalarni doim kuzatib, eslariga solib turish, ashula aytayotgan boshni qanday tutish lozimligini ko'rsatib turish zarur, chunki ba'zi bolalar boshlarini juda tik ko'taradilar yok pastga engashtirib turadilar. Ashula darslarida ko'pincha boshqacha holatlar ham qo'laniladi: o'tirib ashula aytish holati. O'tirib ashula aytishda ham gavda va boshning hol tikka turib ashula aytish uchun qomatni rostlash holatiga o'xshaydi. Taxminan stulning chekkarog'iga, oyoqlarini tikka turib ashula aytgandigina

o'xshash bir-biridan sal ajratib, tayanchni sezdirganroq qilib o'tirishi kerak. Qo'llarini esa tizzaga qo'yishi lozim.

Bolalarda to'g'ri turib ashula aytish ko'nikmasini tezda hosil qilib bo'lmaydi. Bolalar buni osongina tushunib, bilib oladilar-u, lekin tezda eslaridan ham chiqaradilar. Shuning uchun o'qituvchi bolalar ashula aytayotganda qanday o'tirganliklarini doim kuzatib turishi lozim.

Tajribali o'qituvchilar biror ashula o'rganilayotganda yoki mashq qilinayotganda vaqti-vaqti bilan butun sinfga, ba'zan esa alohida bolalarga to'g'ri o'tirish qoidasini eslatib turadi. Agar bular bilan ketma-ket tarzda shug'ullanib borilmasa, bolalar ashulani to'g'ri holatda aytishga erisha olmaydilar.

Doimo bolalarning qanday o'tirganliklarini kuzatib borish bilan o'qituvchi darsga uyushqoqlik ruhini kirgizadi. Bolalar o'zini yaxshi tutadigan, diqqatni bir joyga to'playdigan bo'ladilar. Bu ish ayniqsa boshlang'ich sinflarda juda ko'p sabr-matonat talab etadi. Hamma vaqt qo'shiq aytishga kirishishidan oldin o'qituvchi bolalarga to'g'ri o'tirish kerakligini eslatishi zarur.

O'rganilgan ashulalarni eng yaxshisi tikka turib ijro etish ma'qul, ovoz to'liq jaranglab chiqadi. O'qituvchi bolalarni ashula aytish uchun o'rinlaridan turayotganida shovqinsiz, bejirimlik bilan turishga o'rgatish lozim. Agar ashula darsi maxsus jihozlangan binoda o'tkazilmasa, bolalar partadan shoshilmay osoyishtalik bilan chiqib, o'z o'rinlari yonida tikka turishlari kerak.

Ashula o'rganib bo'lingach, uni ijro etayotganda bolalarning yuzlari ola-zarak bo'lmasdan, ifodali, ma'noli bo'lishi zarur. Yuzdagi mimika ijro etilayotgan ashulaning mazmuni va xarakterini aks ettirishi kerak.

Nafas olish. Qo'shiq aytishdagi to'g'ri holat ashula aytishdagi nafasni to'g'ri olish malakasini egallashning asosidir. Ashula aytish san'ati-bu nafas olish san'atidir, deb ashulachilar aytmaganlar bejiz. Bolalarning deyarli hammasi ashula aytayotganda nafas olishdan foydalanishni bilmaydilar. Bolalar nafas olganlarida o'pkaning faqat yuqorigi qismigina havo bilan to'ldiriladi, bu esa yelkalarining sirtidan entikib-entikib ko'tarilishidan bilinib turadi.

Bolalarni ashula aytish uchun nafas olishning eng qulay, foydali ishidan, ya'ni chuqur nafas olish usulidan foydalanishga o'rgatish kerak, bu holda o'pkalar havo bilan rosa to'ldiriladi. Bolalarga nafas olishda yelkalarni qimirlatmay, osoyishta turishni doimo eslatib turish kerak. Agar bolalardan birortasining nafas olayotganda yelkalari ko'tarilsa, o'qituvchi o'sha bolaning nafas olishiga yordamlashmog'i lozim.

Buning uchun o'qituvchi qo'llarini ashula aytmayotganda bolaning ikki yelkasiga qo'yib turib, nafas olayotganda yelkalarining qimirlashiga yo'l qo'ymaydi.

O'qituvchi beshinchi va undan yuqori sinflarda bolalarga nafas olish vaqtida faqat yelkalarigagina e'tibor bermasdan qanday qilib yaxshi nafas olish lozimligini ham tushuntirish zarur. Bolalar nafas olayotganlarida kaftlarini pastki qovurg'alariga qo'yib turib, bu holni o'zlari tekshirishlari mumkin. Agar nafas olinsa, pastki qovurg'a ko'tariladi. Keyin yotib nafas olganda ham shunday bo'lishini bolalarga tushuntirishi kerak.

Bolalarni to'g'ri nafas olishga o'rgatish faqat ashula aytish uchungina zarur bo'lib qolmay, balki bolalarning sog'lig'i uchun ham zarurdir.

Nafas olishning harakteri va “sur’ati” ijro etiladigan asarga bog‘liqdir. Agar ashulani cho‘zib, sekin-asta aytish kerak bo‘lsa, chuqur va og‘ir nafas olinadi. Agar ashula sho‘xchanroq bo‘lsa, nafas ham tez va yengil olinadi.

Masalan: J.Najmiddinovning “Pianino”, F.Nazarovning “Paxtaoy” qo‘shiqlarini ijro etish uchun har bir jumlaning boshlanishida bolalarning sekin-asta, og‘ir nafas olishlariga erishish kerak.

Ashulachilikka xos nafas olishning ikkinchi lahzasi nafas chiqarishdir. Ashula aytayotganda nafasni chiqarishning mohiyati nimadan iborat? Buning mohiyati shundaki, o‘pkaga olingan nafasdan unumli foydalanishdir. Nafas chiqarishdan oldin bir daqiqa to‘xtatiladi. Buni bolalar “nafasinglarni yutinglar” deganda nafasni bir daqiqa chiqarmay turish lozimligini tushunadi. Bu narsa o‘pkadagi zapas havodan ratsional foydalanishga yordam beradi, aks holda musiqa iborasining birinchi tovushidayoq o‘pkadagi havo shamol bo‘lib qoladi. Ashula bo‘g‘iq jilosiz chiqadi. Biroq o‘pkaga haddan tashqari ko‘p havo olish ham yaramaydi. Ashula aytayotganda havo ortiq olinsa, u tovushning sifatiga, intonatsiyaning aniq chiqishiga salbiy ta’sir qiladi.

O‘qituvchi dirijyorlik isxorasi yoki auf-taktni asarning harakteriga mos keladigan qilib ko‘rsatsa, bolalarning nafas olish va nafas chiqarishlariga yordam berishi mumkin.

Auf-takt momentlari nafas olish taktiga birinchisi –bu nafas olishni ko‘rsatishdir. U musiqaning xarakteri va sur’atini aks ettirishi kerak. U yoki bu ibora uchun qanchalik havo zapasi kerakligiga qarab dirijyorning qo‘l harakati tez, mu’tadil va sekin bo‘lishi kerak. O‘qituvchi nafas olish kerakligini ko‘rsatmoqchi bo‘lganda qo‘li bilan taklif qiluvchi harakat qiladi.

Bolalarni birinchi sinfdan boshlab dirijorning isxorasini tushuntirishga o'rgatish kerak, u vaqtda nafas olish to'g'risida bolalarga tushuntirib o'tirishning hojati qolmaydi, chunki bolalar auktaktlardan bilib oladilar.

Ashula repertuari va maxsus mashqlarni ijro ettirish orqali nafas olishi ustida ish olib boriladi. Bunday mashqlardan biri mojomammalarini yarim notalarda sekinlashgan sur'atda ijro etishdir. Gammada nafasni ma'lum joyda olish olish kerak va bu narsani bolalarning hammasi bir vaqtda bajarishlarini kuzatib turish kerak. Dastlabki paytlarda bunga tezlikda erishib bo'lmaydi. Ba'zi bolalar bir olingan nafas bilan yarim gammani oxirigacha yetkaza olmaydilar. Keyinroq borib bolalarda nafas olish va nafas chiqarish yaxshilanib ketadi hamda ular mashqlarni to'g'ri ijro etishadi. Quyi sinflarda aytiladigan gammaning sur'ati yuqori sinflardagiga qaraganda tezroq bo'lishi kerak.

Yuqori sinflarda = 60

Quyi sinflarda = 80

Ashulachilikka xos nafas olingani rivojlantirish uchun hech qanday ritmsiz, ovozni pasaytirib borishga qaratilgan uzun natijalardagi mashqlarni ijro etish juda foydalidir.

Chuqur nafas olishga qaratilgan mashqlardan tashqari yengil kalta nafas olinadigan mashqlarni ham berish kerak.

Ashula aytadigan nafasni rivojlantirish uchun mashqlar har qancha foydali bo'lsa ham, o'qituvchi bu sohada asosiy o'rinni ashula repertuariga berish kerakligini yoddan chiqarmasligi zarur. Bolalar uchun har bir yangi ashula nafas olishga o'rganish yo'lidagi mashq bo'lib xizmat qiladi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari repertuariga musiqa iboralarining uzilish shu yoshdagi bolalarga mos keladigan ashulalardan kiritish kerak.

Keyinchalik, bolalar ulg'aya borgan sari ashula aytayotganda nafasdan to'g'ri foydalanish malakalarini ham egallab boradilar. Vazifa tobora murakkablashib boradi. Ular oldida kata ijrochilik imkoniyatlari ochiladi. Repertuarga keng nafas olib aytiladigan ashulalar kirgiziladi. Masalan, F. Abdullayevning "Mustaqillik lolalarimiz", I. Akbarovning "Baxor" ashulasi qayta, yengil nafas olish malakalarini egallashga yordam beradi.

Har bir ashula o'rganilayotganda o'qituvchi bolalarning hammasi nafasni bir vaqtda olishlarini kuzatib turishi kerak. Shuning uchun ashulaning qayerida nafas olish ma'qul bo'lishini oldindan yaxshi o'ylab ko'rish kerak.

Nafas olish lahzasi har bir musiqa iborasining boshlanish paytiga to'g'ri keltirishga harakat qilishi kerak., musiqa iborasining o'zi ko'pincha she'riy iboraning boshlanishiga muvofiq keladi. Ko'p vaqt bolalar ashulaning juda muvofiq joyida, hattoki so'z o'rtasida nafas oladilar. Shu bilan musiqaviy va she'riy fikrning ravon borishini buzadilar. O'qituvchi ashulaning qaysi joylarida nafas olish kerakligini ko'rsatib bergandan so'ng, ko'rsatmasining puxta bajarilishiga erishi kerak.

O'qituvchi beshinchi sinfdan sinfdan boshlab o'z ishida xorga xos bo'lgan halqasimon nafasni talab qiladigan ashulalardan foydalanishi kerak. Halqasimon nafas tufayli ijrochilik imkoniyatlari kengayib boradi, bitta ashulachi uddalay olmagan narsani jamoa uddalab ketadi. Halqasimon nafasdan musiqa iborasi bitta nafas uchun uzunlik qilib qoladigan paytlarda foydalaniladi. Halqasimon nafas

olishda bolalarning hammasi nafasini bir vaqtda olmasliklari kerak, balki zanjirdagi xalqadek ketma-ket, navbatma-navbat nafas olishlari lozim. Shuning uchun bunday nafas olish halqasimon nafas olish deyiladi. Halqasimon nafas olishda bolalar yonida turgan o'rtog'ini kuzatib borishi, uning ovozigacha quloq solishi kerak. Halqasimon nafas olinganda iboraning turli joyida, hattoki eng noqulay joylarida ham nafas olish mumkin. Bolalar nafasini rostlab olgach, umum aylayotgan ashlarga ehtiyotlik bilan ovozini boshqalarning ovozidan ajralib turmaydigan qilib jo'r bo'lishi kerak. Halqasimon olishini mashq qilish uchun yuqorida aytilgan major gammasidan foydalanish mumkin. Endi nafasni qat'iy belgilangan joyda olmasdan halqasimon tarzda olish kerak.

Yuqori sinflarda halqasimon nafas olish usulidan keng foydalanishi mumkin, chunki bu vaqtga kelib bolalar xiyaliga ashlachilik tajribasini egallagan va qiyin-qiyin asarlarni ijro etadigan bo'ladilar.

Xulosa qilib aytadigan o'quvchilarni go'zal ohanglarda kuylashlarida to'g'ri nafas olishning ahamiyati juda kattadir.

II BOB. MUSIQAVIY MADANIYATINING SHAKLLANISHDA NOTAGA QARAB KUYLASHNING USLUBIY VOSITALARI

2.1. Notaga qarab kuylash malakalarini shakllantirishda vokal mashqlarning o'рни

Maktabda vokal –xor ishlarini yo'lga qo'yishning eng muhim va murakkab sohasi tovush va nota ustida olib borilayotgan ishlardir.

Sinf mashg'ulotlari sharoitida o'qituvchi ko'proq "kam vokal, xira", ba'zan hattoki hunuk timbrli ovozga ega bo'lgan bolalar bilan ish olib boradi. Bu qiyinchilik yana shu narsa bilan murakkablashadiki, bunday bolalarning ba'zilari kattalarning noto'g'ri uslubiga taqlid qilib, ashulani noto'g'ri aytishga o'rganib qolgan bo'ladi.

O'qituvchi maktab bolalariga qo'shiqni mumkin qadar to'g'ri ijro etishga imkon beradigan mavjud an'ana uslubiga aytishga o'rgatishi kerak.

Bola qanday ovozga ega bo'lmasin unga hech bo'lmaganda minimal darajada tovush hosil qilish madaniyatini berib, ovozning tembrini silliqlash mumkin, agar bunday ovozdan ayrim holda foydalanib bo'lmasa, lekin xor bilan bularning hammasi bir bo'lib, umumiy chiroyli ovoz yaratishi mumkin.

Qo'shiqchilikning elementar madaniyatiga havas uyg'ona borib, biz bolalarni ijro etilayotgan qo'shiqning mohiyatini chuqurroq tushunishga, har bir qo'shiqning o'ziga xos tembri va harakterini qidirib topishga o'rgatamiz.

Qo'shiqning o'ziga xos, bu tembri va xarakterini qanday topish kerak va maktab sharoitida bu narsaga erishish mumkinmi? Ha mumkin va erishish kerak, chunki bu bolalardagi musiqaviy didni va

musiqani tushinish qobiliyatini yanada o‘stiradi. Bolalarning vokal jihatdan yaxshi ovozga ega bo‘lishi bu o‘qituvchining bolalarga ashula ta’limi berilgan birinchi kundan boshlab qunt va diqqat bilan ishlashiga bog‘liqdir. O‘qituvchining “vokal” sezgisi yaxshi bo‘lishi kerak, shu bilan birga u turli yoshdagi bolalarning ovoz xususiyatlarini bilishi juda muhim ahamiyatga ega.

Kichik va o‘rta yoshdagi qiz va o‘g‘il bolalarning ovozi diagnozi jihatidan bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, kichik yoshda u bir oktavani tashkil qiladi. Ashulachilik malakalarini ortira borgani sari va yoshi ulg‘aygani sari u bir yarim oktavagacha oshadi.

Agar kichik yoshdagi bolalar registr u tanglay tovushiga ega bo‘lsa, o‘n yoshidan, ba’zan esa to‘qqiz yoshdan boshlab ularga tanglay tovushidan tashqari, ko‘krak tovushi ham paydo bo‘ladi. Shu munosabat bilan ma’lum vazifalar vujudga keladi.

Qo‘shiqning bir regstridan ikkinchi registriga o‘tish paytlari uchragan hollarda bolalar juda qiynaladilar, chunki bu yerda ovozni ustalik bilan boshqarish talab qilinadi. Ovozni boshqara olish mumkin va bu shartdir.

Bunday vaqtlarda bolalar baland notalarda ko‘krak ovozini saqlab qolishga urinadilar, bu esa soxtalikka olib keladi. Shuning uchun pastki notalarda pozitsiyali tovushlarni topishga harakat qilish, shu bilan birga baland notalarda tabiiy, tanglay tovushda ashula aytishga tayyorlash kerak.

Birinchi va ikkinchi sinflarda esa tovush hosil qilish ustida olib boriladigan ish ko‘proq o‘qituvchining o‘z tovushda aniq ko‘rsatib berishdan iborat bo‘ladi, buni “taqlid qilish” metodi deb atash mumkin. O‘qituvchi mumkin qadar qisqaroq qilib tushuntirishi kerak. Ashulani og‘ir joyi uchraganda o‘qituvchi bolalarning diqqatini bir

yerga to‘plab, shu og‘ir joyni qanday qilib uddalab ketish mumkinligini o‘zi aytib ko‘rsatadiki va zaruriyat bo‘lganda tushuntirib beradi.

To‘rtinchi sinfdan boshlab tovush hosil qilishga doir tushuntirish ishlarini olib boriladi. Biroq bu yerda ham amalda tovush bilan ko‘rsatish, ya’ni “taqlid qilish” metodi yetakchi metod bo‘lib qoladi, chunki bu metod san’atning har qanday turini o‘rganishda qo‘llaniladi. Yuqori sinflarda o‘qituvchi tushuntirish ishlarini keng hajmda olib boradi. Bu yerda bolalar vokalning elementar terminlari bilan tanishtiriladi. Masalan, yuqori pozitsiyasi “tovush atakasi” va shu kabi iboralar bolalarga tanish va tushunarli bo‘lishi kerak. Bolalar ovoz registri haqida va amaliy hamda nazariy jihatdan bularga muvofiq keladigan rezanatorlar haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak. Bu ularga ashulachilik ovozini egallashga yordam beradi.

Bolalar ashulani sun’iy tarzda aytmasdan, balki uni anglab aytishi, o‘z ovozini nazorat qilib borishi kerak. Masalan, bolalar ko‘krak registridan eng past tovushlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri chiqarayotganliklarini bilishi uchun ashula aytayotgan vaqtda qo‘llarini ko‘krak qafasining yuqori qismiga qo‘yib turib aniqlashlari mumkin. Agar bu vaqtda ovozning titrashi sezilsa, demak, ko‘krak rezonans bo‘ladi.\

O‘qituvchi bolalarni tabiiy va erkin ravishda ashula aytishga o‘rganishi kerak. Buning uchun ashulani birinchi navbatda asta-sekin va mayin tovush bilan aytishlariga erishi lozim.

Bolalarni to‘g‘ri tovush hosil qilish usullariga (uni yana boshqacha tovush atakasi deb ataydilar) o‘rgatish juda muhim ishdir. Ashulada tovush atakasi uch xil bo‘ladi.: yumshoq, erkin, qattiq, birdaniga va nafas tovushlari. Bolalar uchun eng qulay yumshoq

atakasidir. Qattiq tovush va nafas tovushi faqat ba'zi ashulalarni ijro etish uchungina xizmat qiladi. Bolalarning bo'shashib ashula aytishiga, ko'pincha nafas tovush atakasidan foydalanilganligi sabab bo'ladi. Ko'proq tortinchoq, yumshoq tabiatli, shalvillagan bolalar xuddi shu xilda ashula aytadilar. Sholvillab aytilgan ashulani tushunish qiyin bo'ladi, nafasi ham chiqmaydi. Bunday hollarda bolalarning to'g'ri o'tirishga, ya'ni ko'krak qafaslarini bukmasdan o'tirishlariga e'tibor berish kerak. O'qituvchi bunday bolalarni mumkin qadar aktivlashtirishga harakat qilishi, dars vaqtida ularga alohida e'tibor berishi kerak.

Agar ashula apparatining sustligiga bolaning sog'lom bo'lmasligi sabab bo'lsa, buni asta-sekin ota-onalariga aytib, vrach ko'rigidan o'tishga erishishi kerak.

Yumshoq tovush atakasi ashulani muloyim ijro etish bilan o'zaro bog'liqdir. Bolalar ashulani bir-biriga bog'liq, legato holatida aytishga o'rganishlari kerak. Bu ashulachilikning asosiy usuli bo'lib, kattalarning ham, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ham shu usulda aytishiga erishmoq kerak. Darslarga ovozni legato va yumshoq chiqarishga o'rgatadigan mashqlarni imkon boricha ko'proq kiritish kerak.

Bunday mashqlarni bolalar ovozini o'rta diapazoniga moslab ko'rish kerak, bu diapazon ashula uchun eng qulaydir.

Tovushni yumshoq qilib chiqarish-bu asosiy fon bo'lib, shu fonda tovush hosil qilishning boshqa usullari yaqqol ajralib turadi, bu haqda biz yuqorida aytib o'tgan edik. O'rganilayotgan ashulani ijro etish rejasiga qarab qattiq tovushdan yoki nafas tovushdan foydalaniladi.

Vokal mashqlarining ko‘pchiligi qattiq tovushda aytish kerak. Bu vokal mashqlarini stakkano uslubida ijro etishdir.

Ta’sirli qilib ijro etishadigan ashulalarda nafas tovushdan foydalaniladi, u ko‘proq hazil mazax laparlarda ishlatiladi. Masalan: xo, ax, ha, ox va shu kabilar. Nafas tovushdan foydalanilganda o‘pkaga olingan havo tovush hosil qilinganda to‘liq chiqib bo‘ladi.

Ashula aytish jarayoni unlilarga asoslanadi va vokal tovushning sifati unlilarning shakllanishiga bog‘liq. Biz gapirgan vaqtimizda tovushlar tabiiy holda chiqaveradi, turli unlilarga refleks asosida shakllanib boradi. Chunki unlilarni to‘g‘ri talaffuz qilishga inson tug‘ilgan kuidan boshlab o‘rganib boradi va unga hech kim alohida e’tibor berib o‘tirmaydi. Biroq ashula aytayotganda so‘zlarni talaffuz qilish shartlari o‘zgaradi, chunki ashulani ma’lum bir tempda aytishi, ovozni baland past qilib chiqarish ba’zi unlilar ustida bir daqiqa to‘xtalish, ya’ni ritmik holatiga rioya qilish talab qilinadi. Nutqdagi unlilarga qaraganda ashuladagi unlilarni shakllantirish alohida e’tibor berishni talab qiladi.

Har qanday ashula musiqa va so‘z kabi kuchli ifoda vositalarini o‘z ichiga olgandir. Shuning uchun ham ashulada diksiya muhim rol o‘ynaydi, o‘z-o‘zidan ma’lum. Biroq ko‘pincha bolalar xorini tinglaganimizda ko‘p so‘zlarni anglay olmaymiz. Ashula o‘z ma’nosini yo‘qotib qo‘yadi. Bolalar ashula tekstini burro aytishga urinib, tovushni qo‘rqib aytadilar. Ashula aytishda ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. O‘qituvchi bolalarda diksiyaning aniq bo‘lishga, so‘zlarning aniq talaffuz qilishga, biroq tovushning sifatiga zara yetkazmaydigan holda bo‘lishga erishish kerak.

Ashula darsining eng muhim qismlaridan yana biri memodik va garmonik soz ustidagi ishlardir. O‘qituvchi birinchi navbatda

ohangdor sozga harakat qildi. O'qituvchi maktabda ashula ta'limi berishning dastlabki ikki yilini ohangdor soz, ya'ni yaxshi inson hosil qilishga e'tibor beradi. Bu tayyorlov jarayoni bo'lib, dastlabki o'quv yillarida bu ish qanday olib borilganligiga qarab, bir ovozli ashuladan ikki ovozli va uch ovozli ashula aytishga o'tishi mumkin.

Yaxshi melodik soz yaratish ovoz bilan kuyning ayrim tovushlarini hamda kuyni butunicha aniq eslashga o'rgatishi demakdir.

Mojor gammasida asosiy ton va beshinchi bosqich barqaror, uchinchi bosqich esa, kuchli talaffuz qilindi, shu bilan majorlanadi, alohida ta'kid bilan jaranglab chiqadi. Ladning qolgan bosqichlarini ma'lum tovushda aytayotganda beqaror tovushlarning barqaror tovushlarga aylanishiga intilishini doim sanab turish kerak.

Monor gammalarini talaffuz qilish qoidalari bilan major gammalarini talaffuz qilish qoidalari o'rtasida jiddiy farqlar bor. Minor gammada asosiy ton va beshinchi bosqich keskin, uchinchi bosqich esa bo'g'i xira talaffuz qilinadi va shu bilan minor ladining eshtilishini ta'kidlaydi.

Bolalar porsiyada major gammasini yaxshi ijro etishini o'rganishlari kerak. bu holda gamma kanon bilan ijro etiladi. Buning uchun guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh gammani ikkinchi guruhdan oldinroq boshlaydi. Birinchi guruh gammaning uchinchi tovushini aytishga kirishishi bilan ikkinchi guruhdagilar gammadan boshidan ayta boshlaydilar.

Xulosa qilib aytganda yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha vokal-xor faoliyatini rivojlantiruvchi turli ko'rinishdagi ovoz mashqlari, gammalar o'quvchilarni notani o'qishga bo'lgan xarakatlarini yanada tezlashtiradi. Keyinchalik esa o'quvchilar o'zlari kuylayotgan kichik-

kichik hajmdagi qo'shiklarni bimalol solfijio qilib ayta olish
imkoniyatlarini qo'lga kiritadilar.

2.2. O'quvchilarning musiqaviy madaniyatini shakllantirishda solfedjiodan foydalanish

Solfedjio – (ital. Solfedjio – notalar, musiqa belgilari, gamma) eshitish malakasini yuksaltirish va notaga qarab ularni tez o'qishni o'rgatish uchun o'tkaziladigan vokal mashqdir.

Qo'shiqni to'g'ri aytish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va ashula o'rganishni tezlashtirish uchun solfedjio, ya'ni notani kuylarini notaga qarab aytish malakalarini egallash katta ahamiyatga egadir.

Notanish kuylarni notaga qarab ijro etish malakasini egallash juda murakkab va uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. U musiqa o'qituvchisidan o'z o'quvchilari bilan jujasinchiklab va sistemali ravishda ish olib borishni talab etadi. Agar o'quvchilar sinfdan-sinfga o'tganlari sari notaga qarab ashula aytish malakalarini izchillik bilan asta-sekin o'zlashtirib borsalar, yuqori sinflarda ashulani “eshitib” o'rganishga o'tishlari mumkin.

Notaga qarab ashula aytish o'quvchilardan ma'lum tayyorgarlikni, musiqa bilimini ma'lum darajada yuksalgan bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun notaga qarab ashula aytish malakasini egallashdan oldin musiqa o'quvini o'stirish musiqa savodini o'rganish, ashulachilik malakalarini egallash yuzasidan ko'pgina ishlar qilingan bo'lishi kerak.

Maktab dasturi 1-sinf bolalari ham musiqa savodidan tegishli bilimgaega bo'lmagan paytdanoq notaga qarab ashula aytishni nazarda tutadi. Shuning uchun notaga qarab ashula aytishga musiqa savodini o'rgatish bilan va ashulachilik malakalarini egallash bilan bir vaqtda boshlanadi va parallel tarzda olib boriladi.

Shunday qilib ta'limning bu hamma turlari (ashula aytish, musiqa savodi, solfedjio) yagona qo'shiqchilik jarayoni bilan bog'langan

bo'lishi va jamoa bo'lib ashula aytish materiali asosida olib borilishi kerak. Ashula darsida bolalar bilan jamoa bo'lib kuylash ishlarini olshib borishga, qanchalik habardor ekanligiga qarab nota yozuvini qo'llanishning turli formalari va usullaridan foydalanamiz. Notaga qarab ashula aytishning oddiy turi bolalar "eshitib" o'rgangan qo'shiq kuyining harakatini, notaga qarab kuzatib borishni bilish hisoblanadi. Bolalarga 1-sinfdanoq, solfedjio malakalari berishni, ularni nota savodi bilan tanishtirgunga qadar notaga qarab ashula aytishning turlaridan boshlash mumkin. Notaga qarab bu xilda ashula aytishidan olgan ta'surotlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, tovushlarning talaffuz qilinishini miyada tasavvur qililish maxoratini o'stirishdir. Sekin-asta tovushlarning ayrim birikmalari, kuyning harakat yo'nalishi, yozuvdagi intervallar odatdagidek bo'lib qoladi va o'quv tasavvurlarini paydo qiladi, bular tovush chiqarib aytish imkonini beradi. Notaga qarab ashula aytishning bu turi birinchi va ikkinchi sinflarga xos narsa bo'lsa ham, undan yuqoriroq sinflarda, ayniqsa musiqadan yaxshi habardor bo'lmagan sinflarda ham foydalanishi mumkin. Notaga qarab aytishning bu turi amalda quyidagicha o'tkaziladi.

Bolalar bilan ashula o'rganib bo'lingach, o'qituvchi uning kuyini sinf taxtasiga yozadi va yoki sinfga ashulaning kuyini oldindan yozib tayyorlangan plakatni keltiradi.

O'qituvchi bularning oldingi darslarda o'rganilib, notaga yozib qo'yilgan ashula ekanligini tushuntiradi. O'qituvchi har bir nota so'zining bir qismini yoki butun bir so'zni bildiradi, deydi va buni tegishli misolda ko'rsatadi, so'ngra o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda savol-javob yo'li bilan kuyning tuzilishini tahlil qilib chiqadi, u qayerda yuqoriga, qayerga qarab yo'nalishini uning rivojlanishi pog'onama-pog'ona yoki sakrashlar yo'li bilan

bo'layotganligini aniqlaydi. Shundan keyin o'qituvchi bolalarga o'zi aytayotgan ashulani diqqat bilan eshitish va harakatlarini kuzatib borish kerakligini aytadi va shu bilan bir vaqtda qo'lidagi tayyoqcha bilan kuyning yo'nalishini ko'rsatib boradi. Shundan keyin o'qituvchi navbat bilan bir necha o'quvchini doskaga chiqaradi, doskadagi o'quvchi butun sinf aytayotgan ashula kuyining yo'nalishini doskaga ko'rsatib turadi. Ashula darsligidan ashula aytishga va shu bilan birga, ashula kuyining yo'nalishini ko'rsatishga o'rganib kelishini uyga vazifa qilib topshirish kerak. Albatta bu malakalarni hosil qilish ishidagi dastlabki, davrda ritmlik tuzilishi oddiy bo'lgan, mo'tadil sekin tomi bilan aytilayotgan kichik-kichik ashulalarni tanlash kerak.

Notaga qarab ashula aytishning boshqa turi nota nomlari bilan ashula aytishidir. Bu xilda ashula aytish shuning uchun ham foydaliki, bunda bolalardagi ko'rish va eshitish taasurotlari o'rtasidagi aloqa aniqlana boradi, shu bilan bolalarning xotirasida musiqa intonatsiyalarining muayan assotsiyasi va nota yozuvida ularning aksi vujudga keltiriladi.

Bolalar notaga savodini o'rganganlari sari nota nomlari bilan ashula aytishning boshlayverish mumkin. Dastlab bolalarga tanish bo'lgan ashulalarning ayrim qismlarini olishi mumkin, undan keyin esa birinchi oktavaning barcha notalarini bilib olgach, ashulani to'lig'icha aytish mumkin. Masalan, agar bolalar birinchi oktavadagi SOL va Lya notalarini ular bilan notaga qarab "Oq terakmi, ko'k terak" ashulasini aytish mumkin.

Notaga qarab ashula aytishning bu turini egallash yuzasidan sinfda olib boriladigan amaliy ish yuqorida aytib o'tilgan ashula aytishni o'rganish o'tishlariga o'xshash olib boriladi. Avval kuyning tuzilishi maxlil qilinadi. Agar bolalar nota cho'zimni bilsalar, u holda ashulada qanday nota cho'zimlarining uchrashi aniqlanadi. 1-sinfda

bolalar hamma notalar cho‘zimni navbat bilan ularning uzun va qisqaligini aniqlab aytib berishlari kerak. So‘ngra esa o‘qituvchi nota yozuvidagi notalarni qo‘lidagi ko‘rsatkich bilan ko‘rsatib turadi, o‘qituvchi esa xor bo‘lib ularning nomini aytadilar. Doskaga bitta o‘qituvchini chaqirish mumkin. U notalarni ko‘rsatib ularning nomlarini aytib beradi va butun sinf o‘quvchilari esa uning javobini diqqat bilan kuzatib turadilar. Shundan keyin notalarni ashula ritmida xor bo‘lib o‘qish (solmizatsiya) so‘ngra kuyni nota nomlari bilan aytib chiqish juda foydalidir.

Kuy bolalarga ma’lum bo‘lgandan keyin notaga qarab bu xilda ashula aytishda intonatsion qiyinchiliklar uchramaydi. Hamma qiyinchilik notalarni ritmik va intonatsion jihatdan aniq aytib berishdadir. Bu esa notanish kuylarni notaga qarab aytish malakalarini egallash yo‘lidagi birinchi qadam hisoblanadi. Notaga qarab ashula aytishning bu ikki turi ham 1 va 2 sinflarning bolalari bilan olib boriladigan asosiy ishdir.

Notaga qarab ashula aytishning yana bir turi solfidjiodir. Solfidjio malakalarning egallash o‘quvchilarning musiqa o‘quvini o‘stirishda, ularning amaliy ishida katta ahamiyatga egadir. Notanish kuyni notaga qarab chalish uchun dilda kuylash o‘quvining rivojlangan bo‘lishi, ya’ni yozilga kuyning ohangini fikran tasavvur qila oladigan bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham musiqa o‘quvini o‘stirish va musiqa tajribasiga yetarli darajada ega bo‘lishdek uzoq vaqtni va muntazam ravishda ishlashni talab qiladi. Bugungi musiqa savodini o‘rganish, musiqa adabiyotlari bilan tanishish, vokal-xor malakalarini egallash jarayonlarida erishiladi. Bolalar sekin-asta musiqaviy o‘quv bilan musiqaviy nutqning balandlik, lad va metroritlik xususiyatlarini tushuna va anglay boshlaydilar, shu bilan

bir vaqtda ularda mushohada, o‘qish va ashulachilik sezgilari paydo bo‘ladi, bular esa ma’lum bir intonatsion tasavvurini hosil qiladi.

Ashula aytishicha o‘rgatish jarayonida dilda kuylash o‘quvi to‘xtovsiz rivojlanib va takomillashib boradi. Dilda kuylash o‘quvisiz notanish kuylarni notaga qarab aytish mumkin emas ekan, u holda dilda kuylash o‘quvi solfedjio jarayonida rivojlanadi, bu esa o‘z navbavtida notaga qarab aytiladigan misollardan borgan sari murakkablashtirish imkonini beradi “Dilda kuylash o‘quvi”, musiqadan diktant, mashqlar yozdirish, o‘quvchiga tanish bo‘lgan musiqadan ayrim parchalarni yoddan yozdirish hamda avval o‘zi ijro etib, unga tanish bo‘lgan notalarni o‘qish, keyinchalik esa notanish notalarini ovoz chiqarmasdan yoki fikran aytish yo‘li bilan mustahkam va rivojlantirib boriladi-deb yozgan edi Risskiy-Korsakov.

“Dilda kuylash o‘quvi” ni o‘stirish uchun ashula darsida og‘zaki diktant yozdirish juda foydalidir. Og‘zaki diktant yozdirish metodikasi quyidagicha bo‘ladi” O‘qituvchi birinchi tovushni chiqaradi, o‘quvchilar uni qaytaradilar: so‘ngra o‘qituvchi notalarni nomlarini aytadi, o‘quvchilar esa ularni kuylashlari kerak.

Shunday qilib meldik misol vujudga keladi. Og‘zaki diktant yozdirishning ikkinchi varianti misolidagi tovushlarni topib olish, bu misoldagi tovushlarni topib olish, bu misolni o‘qituvchi cholg‘u asbobida chaladi yoki ovoz chiqarib aytadi. Avval o‘qituvchi birinchi tovushning nomini aytadi. So‘ngra esa kuyni bir necha marta chaladi yoki kuylaydi. Shundan keyin doskaga chiqarilgan o‘quvchi hamma tovushlarning nomlarini birma-bir aytib berishi kerak. Boshqa o‘quvchilar quloq solib o‘tiradilar va doskadagi o‘quvchi hato qilib qo‘ysa uni tuzatadilar. Eng oxirida bu misolni butun sinf ijro etadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab og‘zaki diktant yozdirish uchun u yoki bu darajada murakkab bo‘lgan kuy tanlaydi.

Unga katta bo‘lmagan ashula, mashq, gamma va uch tovushliklarni “zanjirsimon” aytishham xiyla foydalidir. Zanjirsimon ashula aytish metodikasi quyidagicha: o‘qituvchi ilgari o‘rganilgan mashq yoki ashulani tanlab olib, uni doskaga yozadi. So‘ngra sinf ikkiga yoki bir necha guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi guruhlarning navbat bilan goh ovoz chiqarib, goh fikran “dilda” kuylashi kerakligini tushuntiradi. Guruhlardan bittasi ovoz chiqarib kuylayotganda, ikkinchi guruh “dilda” kuylaydi.

So‘ngra guruhlar joylarini almashtirishlari mumkin, ya’ni 2 guruh boshlab berib, 1 guruh esa dam olishi mumkin. Bu mashqni har bir o‘quvchi bilan alohida o‘tkazish ham mumkin. Bolalarning diqqatini o‘stirish uchun misolni doskaga yozmasdan, o‘qituvchining ko‘rsatmasiga binoanhar qaysi guruhdagi o‘quvchilar bir yoki bir necha tovushni so‘z bilan ijro etadilar, agar kuy nom-nomlari bilan yod o‘rganilgan bo‘lsa, u vaqtda nota nomlari bilan ijro etish kerak. “Zanjirsimon” ashula aytayotganda, ikkinchi guruhdagilarni huddi shu ashulaning o‘zini fikran, “dilda” aytishga majbur qiladi. Aks holda ularga ashula aytish gali kelganda o‘z vaqtida va to‘g‘ri qo‘shilib ketolmaydilar. Bu narsa o‘quvchilarni ovoz chiqarib aytilgan ashulagagina quloq solishga o‘rgatadi, diqqatini kuchaytiradi, o‘z-o‘zining o‘quvini tekshira olish malakasini hosil qiladi.

Gammalarni, uch tovushlarni va kichik-kichik mashqlarni butun sinf birgalikda aytsa juda foydali bo‘ladi. Bunda bir necha tovushlar ovozni chiqarib aytadi, qolganlari esa ichda aytadi. O‘qituvchi aytilishi lozim bo‘lgan ashulani doskaga yozgan va qoraga bo‘yalgan

notalarni “dilda” qolganlarini esa ovoz chiqarib ijro etish kerak deb ogohlantiradi.

Bu turdagi ishlardan maqsad-musiqqa o‘quv taasurotini hosil qilishi va notani o‘qishda ulardan foydalana bilishdir.

Dilda kuylash o‘quvchini o‘stirish ustida olib boriladigan ish metodlarining juda ko‘p turlari bor. Har bir ashula o‘qituvchisi o‘z ishiga ijodiy yondashib borsa, bolalarning yoshi va tayyorgarligiga qarab, ularning o‘quvchini o‘stirish uchun eng foydali, hilma-xil metodlarni topishi mumkin.

Solfedjio malakasini egallash ko‘p vaqtni talab qiladi va u 1-sinf dan boshlansa ham o‘zining eng asosiy maqsadiga notaga qarab ashula o‘rganishga faqat yuqori sinflarda erisha oladi.

Bolalar “dilda kuylash o‘quvi” bilan tasavvur qila oladigan kuynigina tayyorgarlik ko‘rmasdan notaga qarab ijro eta oladilar. Shuning uchun notaning kuyni notaga qarab ijro etish malakasini egallashda bolalarga tushunarli bo‘lgan, ularning o‘quvi va umuman musiqa saviyasiga mos keladigan material tanlash kerak. Odatda maxsus tanlab olingan mashqlar yoki ashuladan parchalar shunday materiallar bo‘lib xizmat qiladi. Bular mashq va parchalarida bolalarga tanish bo‘lgan tovushlar sirasi ish jarayonida o‘quvchilar tomonidan to‘plangan maxsus intonatsion oborotlardir.

Notaning kuylarni notaga qarab ijro etish mashg‘ulotlari birdan-bir maqsad bo‘lib qolmaligi uchun, bolalarda notanish kuyni ijro etishga qiziqish tug‘dirish uchun, bu mashg‘ulotlarning kelgusidagi amaliy ishda qanday katta ahamiyatga ega bo‘lishini ko‘rsatish kerak. Shu sababli notaning kuyni notaga qarab ijro etish uchun sinfda o‘rganilayotgan ashulalarning ayrim parchalardan foydalanishi mumkin.

Ashula darsida notanish kuyni notaga qarab ijro etish yuzasidan quyidagicha ish olib boriladi.

O'qituvchi doskaga nota misollari yozadi. So'ngra o'qituvchining savollariga o'quvchilarning bergan javoblari asosida kuy taxlil qilish darajasi o'quvchilarning yoshiga qarab va musiqa savodidan tayyorgarligiga qarab o'tkaziladi. Taxlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga tushunilmay qolgan o'rinlarini tushuntiradi, diqqatini asosiy narsaga jalb etadi.

Yuqori sinflarda tonalligi 2 tagacha belgisi bo'lgan (sol, fa, si, mi, si, re, re, sol-minor) minor va majorli misollar uchraydi. Solfedjiolanadigan misoldagi birinchi tovushni topib olish uchun o'quvchilarni eng boshdan o'qituvchi ketidan soz tovushlarini aniq qaytarish va idrok qilishga o'rganishi zarur. O'quvchilar ovozini rejaga solishning bir qancha uchuli bor. Odatda, tonik uchtovushlikni aytishning o'zi kifoya qiladi, ba'zan o'quvchilarni kerakli tonallik sferasiga kiritish uchun tonikani yuqoriga va pastki muqaddima tonida aytishi talab qilinadi. Masalan, 2 sinfdagi mana bu notanish kuyni ijro etish kerak: sinfdagi o'quvchilar ovozini sozlash uchun ashulani o'qituvchi aytadi, o'quvchilar uning ketidan uchtovushlik Do mojorni quyidagi ko'rinishda takrorlaydilar.

Misolning "Sol" tovushdan boshlanishi aniqlangach o'quvchilarning hammasi xor bo'lib nota nomlarini aytib kuylay boshlaydi. Misol avval xor bilan keyin guruh bilan, so'ngra har bir o'quvchi bilan alohida-alohida bir necha marta takror ijro etiladi. Xor bilan aytishiga qaraganda yakka holda notalar nomini aytib ijro etish ancha qiyin.

Shuning uchun yuqori sinflarda, o'quvchilar notanish kuyni notaga qarab ijro etish tajribasiga ega bo'lganlarida yangi misolni

avval ayrim o'quvchilar, so'ngra esa butun sinf ijro etishi mumkin. Agar bolalar nota nomlarini aytib ijro etishda intonatsion yoki ritmik hato qilayotgan bo'lsalar, o'qituvchi xorni to'xtatib, hatoning sabablarini tushuntirishi va tto'g'ri intanatsion topishni o'quvchilarning o'zlaridan talab qilishi kerak.

Agar notaning kuyni notaga qarab ijro etish uchun ashuladan parchalar yoki so'zlardan misol tanlab olinsa, u holda so'zlar kuy aniq va ishonchli o'rganilgandan keyingina nota ustiga yoziladi. Ana shundagina misol qaysi ashuladan olingan bo'lsa, o'sha ashulaning nomi yoziladi.

Solfedjio malakasini egallashga ashula darsliklari katta yordam berishi mumkin. Bunday darsliklarda notaning notaga qarab ashula aytishi uchun turli misollar sistemasi va izchillik bilan tanlab berilgan.

Notanish kuyni chalayotganda ashulani ritmik va borobar ijro etish uchun bolalarning o'zlari dirijyorlik qilishlari kerak. Quyi sinflarda berilgan barcha misollar $2/4$ o'lchovida bo'lganligi sababli dirijyorlik qilish bolalarga u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi. O'qituvchi yuqori sinflarda $3/4$ o'lchovidagi, keyinchilik esa $4/4$ o'lchovidagi notalarga qanday dirijyorlik qilish lozimligini tushuntiradi.

O'qituvchi yuqori sinflarda 6/7 sinflarda o'quvchilar bilan notaga qarab ashulani o'rganayotganda notanish kuyni ijro etishga mayyorgarlik ko'rish va uni ijro etishni yengillashtirish uchun intonatsiyaga asoslangan maxsus tanlangan bir qancha mashqlardan foydalansa yaxshi natija beradi. Solfedjioni cholg'u asbobining jo'rlligisiz o'tkazishi kerak, chunki bu narsa bolalrning diqqatini

kuchaytirishga yordam beradi va ashula aytishda o‘z-o‘zini tekshirib tuzatib borishga imkoniyat tug‘diradi

Jo‘rsiz ashula aytish o‘quvni juda o‘stiradi, sof, mustahkam intonatsiya va to‘g‘ri vokalmalakalarini hosil qiladi. Bolalarni asbobga ishonmasdan kuyni, jursiz to‘g‘ri aytishga, o‘zining va o‘rtoqlarining ashula aytishdagi hatolarini eshitish hamda uni tuzatishga odatlantirish kerak.

Solfedjio yuzasidan olib borilgan kamertondan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Bunda tempni to‘g‘ri topa bilish katta ahamiyatga ega. Misolni mu’tadil tempda aytishi eng qulay hisoblanadi, chunki bu o‘quvchilarga solfedjio qilinadigan misolni yaxshiroq eshitish va undagi tovushlarni aniqroq talaffuz qilish imkonini beradi. Notanish notadagi notadagi ashulani ijro etish uchun yoki misolni tez tempda aytish uchun tempni birdan tezlashtirmasdan avval sekinroq boshlab, intonatsiyani egallagan sari tempni talab qilingannuqtaga yetkazish mumkin. Birdaniga tezlashgan tempda ashula aytilsa, ko‘p hatolarga olib keladi, kuy buzib aytiladi solfedjio uchun misol tanlayotganda bolalarning ovoz kuchini hisobga olish eng asosiy momentlaridan hisoblanadi.

Hamma misollarda uning qaysi joyda nafas olishi lozimligini ko‘rsatishi kerak. Talaffuzning aniq bo‘lishi ko‘p jihatdan tovushni to‘g‘ri hosil qilishga va nafas olishga bog‘liqdir. Notanish kuylarning notasiga qarab aytishda o‘quvchilarga qattiq ovozda kuylashga ruhsat berish kerak emas, chunki ular o‘z ovozini yaxshi eshita olmaydi va ashulani qanday aytayotganligini nazorat qila olmaydi. Hamma misllarni mu’tadil tovushda aytish kerak. O‘quvchilar ashula aytayotganlarida nota nomlarini aniq va ravshan talaffuz qilishlari, undosh harflarni to‘g‘ri aytishlari juda muhimdir. Solfedjio malakasini

egallash uchun har darsda, har yili muntazam va izchillik bilan ishlash lozim. Notaga qarab ashula aytish 1 sinfning 2 yarmidan boshlanadi.

Solfedjio uchun olinadigan hamma misollarning o'lchami 2/4 bo'limi. Domajor tovush qatorining balandligi jihatdan turlicha bo'lgan, asosan primar tovush zonasida ilgarilab boruvchi kuy olinishi kerak.

2 sinfda 1 sinfda o'tilgan misollardan bir nechisini takrorlab, yangi materialni o'rganishga kirishmoq kerak 2 sinfga kuyning ilgarilama harakatni solfedjio uchun berilgan misollarda ko'pchilikni tashkil etadi, bundan tashqari tonik o'lchovliklarni aytishasosida tersiya intervallari kvinta, oktavani o'z ichiga oluvchi misollar beriladi. Bu musiqa o'quvchini yaxshilashga yordam beradi. 3 va 4 sinflarda ilgarilab boruvchi kuydan tashqari, barqaror bosqichlar ya'ni tonik uchtovushliklari ustida olib borilgan ishlar davom ettiriladi. Bundan tashqari bir belgili tonalliklar (fa, major va sol major) hamda minor ladidan (lya, mi va re minor) misollar kiritiladi.

5 va 6 sinflarda mashqlar diapazoi kengayadi kvarta va seksta intervallari kiritiladi. Minor ladidagi ashulalarni aytish malakalarini egallash ishchi davom ettiriladi. Kuyning ritmlik tuzalishi murakkablasha boradi: Nuqtali notalar, unoltitalik pauzalar, takt oldi va boshqalar uchraydi. 7 sinfda uzunroq misollar, o'quvchilar uddalab keta oladigan ashulalar olinadi. Gionallikning doirasi kengayadi. Ikki belgili tonalliklardan misollar (re major, si mionr, si-bemol major sol minor) o'rganiladi. Septima intervallari kiritiladi.

Yuqoridagilarning hammasiga yakun yasab, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Bolalrni ashulaga o'rgatishda egallash solfedjio malakasini egallash katta ahamiyatga ega. Ashula darsida bolalrning musiqaviy

saviyasini oʻstiradigan bunday muhim ishga yetarli eʼtibor bermaslik mumkin emas.

2. Solfedjio taʼlimi musiqa savodini, musiqa adabiyotini oʻrganish va vokal-xor malakalarini egallash ishlari bilan sistemali ravishda izchillik bilan bogʻlab olib borilishi kerak.

3. Oʻquvchilardagi solfedjio malakalarini oshirishi ustida ashula oʻqituvchisi juda katta ish olib borishi va ish metodini doim takomillashtirib turishi zarur.

X U L O S A

Bugungi kunda mamlakatimizda borayotgan tub ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar musiqa ta'limi tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shaxsni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash muammosini hal qilish bugungi kun davr talabidir. Ayni vaqtda yoshlarni milliy misiqiy merosimizga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida, tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilar oldida turgan kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardandir.

Hozirgi vaqtda o'quvchilarni milliy va bastakorlarimiz tomonidan yaratilgan nazariy va amaliy jihatdan puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash va musiqa darslari faoliyatlarini yanada unumli hamda yuqori saviyada olib borish yo'd va usullarini ishlab chiqish amalda ularni tadbiq qilish, tadqiqotchilarimiz asosiy muammolardan biridir.

Men ushbu mummo yuzasidan yozgan malakaviy bitiruvishimda musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning nota o'qish malakalarini shakllantirish va uni musiqa amaliyotida keng ommalashtirishni maqsad qilib oldim, olib borgan izlanishlarim natijalari shuni ko'rsatadiki agarda musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning nota o'quvi samaradorligi oshirilsa o'quvchilarning musiqa darslariga bo'lgan munosabatlari tubdan o'zgardi. Ular tomonidan kuylanayotgan turli ovoz sozlash mashqlari, ayniqsa yangi o'rganilayotgan qo'shiqlar osonlik bilan o'zlashtirilishi yaqqol seziladi. Buni alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning nazariy bilimlari amaliyotda yaxshi natijalar berdi.

Yaratilgan ushbu malakaviy bitiruv ishida musiqa madaniyati darslari samaradorligini nota o'qish malakalarini shakllantirishning ayrimamaliy usullari bayon etiladi.

Olib borgan ishimizning asosiy maqsadi va mazmuni musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning nota o'qish malakalarini shakllantirishning musiqiy pedagogik vazifalarini yechishga: (bunda asosan o'quvchilarni nota o'qish savodxonligini yanada yaxshilashga, oligan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga, qo'shiqlarni yanada aniq va nafis kuylashga asosiy e'tiborni qaratish). Ikkinchidan esa o'z-o'zini eshitish musiqiy ohanglarni aniq his qilish, ularni bir-biridan ajrata bilishga yo'naltirilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.** Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent – “O‘zbekiston” nashriyoti 1997 yil
- 2.** Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” Toshkent – “Sharq” nashriyoti 1999 yil
- 3.** Karimov I.A. “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” Toshkent – “O‘zbekiston” nashriyoti 1998 yil.
- 4.** “O‘zbek musiqa tarixi” T., “Musiqqa” 1979 yil
- 5.** “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi. T. 1996 yil
- 6.** “Vatan tuyg‘usi” - Toshkent – “O‘zbekiston” 1996 yil
- 7.** Abdurauf Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasi. T.
- 8.** Akbarov I. “Musiqqa lug‘ati”T., G‘G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san‘at nashriyoti” 1987 yil
- 9.** Begmatov S., Mamirov K., Mansurov A, Karimova D, Ro‘ziyev I. 6 sinf uchun darslik G‘. G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san‘at” nashriyoti. Toshkent 2001 yil.
- 10.** Ibraximov O, Sadikov J. 7 sinf uchun darslik G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent 2001 yil.
- 11.** Mansurov A., Karimov D. Musiqqa 5 sinf uchun darslik G‘.G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san‘at” nashriyoti. Toshkent 2001 yil
- 12.** Nurmatov X. Musiqqa alifbosi 1 sinf darslik Toshkent “O‘qituvchi” 1999 yil.

13. Nurmatov X. Musiqa. 2 sinf darslik. Toshkent. Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot sanʼat nashriyoti.2001 yil
14. Omonullayev D. Darsda xalq merosini oʻrganish. Boshlangʻich taʼlim 1998 yil №1.
15. Umumiy oʻrta taʼlimning DTS va oʻquv dasturi 6 maxsus soni. Sharq nashriyoti matbaa konserni. Toshkent. 1999 yil
16. Ziyomammedov B. “Maʼrifat asoslari” Toshkent – “Oʻzbekiston” 1998 yil
17. Internet maʼlumotlari:

www.ziyo.edu.uz – Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim va axborot resursi

www.pedagog.uz – pedagoglar portali

Ярим ва чорак ноталар

1

2

3

4

5

6

Нимчорак нота

7 **Moderato**

8

9

10



11

Musical notation for measure 11, treble clef, 2/4 time signature. The melody consists of eighth and quarter notes.

12 **Allegro moderato** Жажжи қиз И.Хамроев м.

A single staff of music in treble clef. The melody consists of eighth notes: G4-A4-B4 (beamed), C5-B4-A4 (beamed), G4-F#4-E4 (beamed), D5-C5-B4 (beamed), A4-G4-F#4 (beamed), E4-D4-C4 (beamed), B3-A3-G3 (beamed), F#3-E3-D3 (beamed). The piece ends with a double bar line.

13 ПАУЗАЛАР



The first staff of music shows a sequence of eight eighth notes on a treble clef staff. The notes are: G4 (first space), A4 (second space), B4 (third space), C5 (third line), B4 (third space), A4 (second space), G4 (first space), and F#4 (first space, sharp). The notes are beamed together in pairs.

14

Measure 14: Treble clef, 2/4 time. The melody consists of eighth and quarter notes with rests: C4 (quarter), D4 (quarter), E4 (quarter), F4 (quarter), G4 (quarter), A4 (quarter), B4 (quarter), and C5 (quarter).

[illegible]

15



Measure 15: The melody continues with eighth notes. The notes are G4, A4, B4, C5, B4, A4, G4, F#4, E4, D4, C4, B3, A3, G3, F#3, E3, D3, C3, B2, A2, G2, F#2, E2, D2, C2, B1, A1, G1, F#1, E1, D1, C1, B0, A0, G0, F#0, E0, D0, C0, B-1, A-1, G-1, F#-1, E-1, D-1, C-1, B-2, A-2, G-2, F#-2, E-2, D-2, C-2, B-3, A-3, G-3, F#-3, E-3, D-3, C-3, B-4, A-4, G-4, F#-4, E-4, D-4, C-4, B-5, A-5, G-5, F#-5, E-5, D-5, C-5, B-6, A-6, G-6, F#-6, E-6, D-6, C-6, B-7, A-7, G-7, F#-7, E-7, D-7, C-7, B-8, A-8, G-8, F#-8, E-8, D-8, C-8, B-9, A-9, G-9, F#-9, E-9, D-9, C-9, B-10, A-10, G-10, F#-10, E-10, D-10, C-10, B-11, A-11, G-11, F#-11, E-11, D-11, C-11, B-12, A-12, G-12, F#-12, E-12, D-12, C-12, B-13, A-13, G-13, F#-13, E-13, D-13, C-13, B-14, A-14, G-14, F#-14, E-14, D-14, C-14, B-15, A-15, G-15, F#-15, E-15, D-15, C-15, B-16, A-16, G-16, F#-16, E-16, D-16, C-16, B-17, A-17, G-17, F#-17, E-17, D-17, C-17, B-18, A-18, G-18, F#-18, E-18, D-18, C-18, B-19, A-19, G-19, F#-19, E-19, D-19, C-19, B-20, A-20, G-20, F#-20, E-20, D-20, C-20, B-21, A-21, G-21, F#-21, E-21, D-21, C-21, B-22, A-22, G-22, F#-22, E-22, D-22, C-22, B-23, A-23, G-23, F#-23, E-23, D-23, C-23, B-24, A-24, G-24, F#-24, E-24, D-24, C-24, B-25, A-25, G-25, F#-25, E-25, D-25, C-25, B-26, A-26, G-26, F#-26, E-26, D-26, C-26, B-27, A-27, G-27, F#-27, E-27, D-27, C-27, B-28, A-28, G-28, F#-28, E-28, D-28, C-28, B-29, A-29, G-29, F#-29, E-29, D-29, C-29, B-30, A-30, G-30, F#-30, E-30, D-30, C-30, B-31, A-31, G-31, F#-31, E-31, D-31, C-31, B-32, A-32, G-32, F#-32, E-32, D-32, C-32, B-33, A-33, G-33, F#-33, E-33, D-33, C-33, B-34, A-34, G-34, F#-34, E-34, D-34, C-34, B-35, A-35, G-35, F#-35, E-35, D-35, C-35, B-36, A-36, G-36, F#-36, E-36, D-36, C-36, B-37, A-37, G-37, F#-37, E-37, D-37, C-37, B-38, A-38, G-38, F#-38, E-38, D-38, C-38, B-39, A-39, G-39, F#-39, E-39, D-39, C-39, B-40, A-40, G-40, F#-40, E-40, D-40, C-40, B-41, A-41, G-41, F#-41, E-41, D-41, C-41, B-42, A-42, G-42, F#-42, E-42, D-42, C-42, B-43, A-43, G-43, F#-43, E-43, D-43, C-43, B-44, A-44, G-44, F#-44, E-44, D-44, C-44, B-45, A-45, G-45, F#-45, E-45, D-45, C-45, B-46, A-46, G-46, F#-46, E-46, D-46, C-46, B-47, A-47, G-47, F#-47, E-47, D-47, C-47, B-48, A-48, G-48, F#-48, E-48, D-48, C-48, B-49, A-49, G-49, F#-49, E-49, D-49, C-49, B-50, A-50, G-50, F#-50, E-50, D-50, C-50, B-51, A-51, G-51, F#-51, E-51, D-51, C-51, B-52, A-52, G-52, F#-52, E-52, D-52, C-52, B-53, A-53, G-53, F#-53, E-53, D-53, C-53, B-54, A-54, G-54, F#-54, E-54, D-54, C-54, B-55, A-55, G-55, F#-55, E-55, D-55, C-55, B-56, A-56, G-56, F#-56, E-56, D-56, C-56, B-57, A-57, G-57, F#-57, E-57, D-57, C-57, B-58, A-58, G-58, F#-58, E-58, D-58, C-58, B-59, A-59, G-59, F#-59, E-59, D-59, C-59, B-60, A-60, G-60, F#-60, E-60, D-60, C-60, B-61, A-61, G-61, F#-61, E-61, D-61, C-61, B-62, A-62, G-62, F#-62, E-62, D-62, C-62, B-63, A-63, G-63, F#-63, E-63, D-63, C-63, B-64, A-64, G-64, F#-64, E-64, D-64, C-64, B-65, A-65, G-65, F#-65, E-65, D-65, C-65, B-66, A-66, G-66, F#-66, E-66, D-66, C-66, B-67, A-67, G-67, F#-67, E-67, D-67, C-67, B-68, A-68, G-68, F#-68, E-68, D-68, C-68, B-69, A-69, G-69, F#-69, E-69, D-69, C-69, B-70, A-70, G-70, F#-70, E-70, D-70, C-70, B-71, A-71, G-71, F#-71, E-71, D-71, C-71, B-72, A-72, G-72, F#-72, E-72, D-72, C-72, B-73, A-73, G-73, F#-73, E-73, D-73, C-73, B-74, A-74, G-74, F#-74, E-74, D-74, C-74, B-75, A-75, G-75, F#-75, E-75, D-75, C-75, B-76, A-76, G-76, F#-76, E-76, D-76, C-76, B-77, A-77, G-77, F#-77, E-77, D-77, C-77, B-78, A-78, G-78, F#-78, E-78, D-78, C-78, B-79, A-79, G-79, F#-79, E-79, D-79, C-79, B-80, A-80, G-80, F#-80, E-80, D-80, C-80, B-81, A-81, G-81, F#-81, E-81, D-81, C-81, B-82, A-82, G-82, F#-82, E-82, D-82, C-82, B-83, A-83, G-83, F#-83, E-83, D-83, C-83, B-84, A-84, G-84, F#-84, E-84, D-84, C-84, B-85, A-85, G-85, F#-85, E-85, D-85, C-85, B-86, A-86, G-86, F#-86, E-86, D-86, C-86, B-87, A-87, G-87, F#-87, E-87, D-87, C-87, B-88, A-88, G-88, F#-88, E-88, D-88, C-88, B-89, A-89, G-89, F#-89, E-89, D-89, C-89, B-90, A-90, G-90, F#-90, E-90, D-90, C-90, B-91, A-91, G-91, F#-91, E-91, D-91, C-91, B-92, A-92, G-92, F#-92, E-92, D-92, C-92, B-93, A-93, G-93, F#-93, E-93, D-93, C-93, B-94, A-94, G-94, F#-94, E-94, D-94, C-94, B-95, A-95, G-95, F#-95, E-95, D-95, C-95, B-96, A-96, G-96, F#-96, E-96, D-96, C-96, B-97, A-97, G-97, F#-97, E-97, D-97, C-97, B-98, A-98, G-98, F#-98, E-98, D-98, C-98, B-99, A-99, G-99, F#-99, E-99, D-99, C-99, B-100, A-100, G-100, F#-100, E-100, D-100, C-100, B-101, A-101, G-101, F#-101, E-101, D-101, C-101, B-102, A-102, G-102, F#-102, E-102, D-102, C-102, B-103, A-103, G-103, F#-103, E-103, D-103, C-103, B-104, A-104, G-104, F#-104, E-104, D-104, C-104, B-105, A-105, G-105, F#-105, E-105, D-105, C-105, B-106, A-106, G-106, F#-106, E-106, D-106, C-106, B-107, A-107, G-107, F#-107, E-107, D-107, C-107, B-108, A-108, G-108, F#-108, E-108, D-108, C-108, B-109, A-109, G-109, F#-

16 **Moderato** Турналар ва куёнлар Ил. Акбаров м.





24 **Allegro** Вальс В.Зудов м.



25 **Allegro** Фа мажор тоналлиги Марш Пак Ен-Дин м.



26 **Allegro** Марш К.Абдуллаев м.



27 **Andante** Райхон Т.Курбонов м.




28 **Moderato** Айикча В.Зудов м.



29 4 хиссали ўлчов



Ре мажор тоналлиги



34

Жонон кўринур

Т.Содиқов м.



35

Allegro

Жўжалар

М.Юсупов м.



36

Allegro

Болари

И.Хамроев м.



37

Allegro

2,3,4 хиссали ўлчовлар
Ёш чўпон

Ж.Кенжаев м.



38

Allegro

Овчи кўшиғи

Г.Собитов м.



39

Moderato

Боғбон қиз

С. Алиев м.









Фа мажор ва ре минор тонлиги



52 Чаккон

Май

Г.Қодиров м.



53 Секин

Салют

Ик.Ақбаров м.



54 Чаккон

Олма

Г.Қодиров м.



55 Секин

Шодлик кўшиғи

Ф.Назаров м.



56 Секин

Ҳайвонот боғида

Ж.Кенжаев м.



